

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI



**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA**

**FAKULTETI**

**«TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI**

**«Yurtimizning go'zal tarixiy obidalarini tasvirlash**

**(Buxoro manzarasi misolida) m.b» mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** « Kasb ta'limi

(Tasviriy san'at va muhandislik)»

ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

4 kurs talabasi **Radjabova Nigora**

\_\_\_\_\_

**ILMIY RAHBAR:**

Katta o'qituvchi **Sh.R.Ramazonov**

\_\_\_\_\_

**Fakultet dekani:** Psixologiya fanlari doktori  
Professor-Barotov SH.R

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016yil

**BUXORO – 2016.**

**Mavzu:** Yurtimizning go'zal tarixiy obidalarini tasvirlash (Buxoro manzarasi misolida) m.b

**Reja:**

Kirish.....2-4 betlar

**I BOB.**

1.1.Buxoro tarixiy obidalarohaqida ma'lumot.....5-10 betlar

1.2. Buxoro hududidagi qadimgi ko'chalar va ularning nomlanishi...11-15 betlar

1.3. O'zbek rassomlari ijodida tarixiy obidalar manzarasi.....16-25 betlar

1.4. Yurtimizdagi rangtasvirning qisqacha rivojlanish tarixi.....26-31 betlar

**II BOB.**

2.1. Manzara bajarishda moy bo'yoq texnologiyasi.....32-39 betlar

2.2. Kartina bajarishda asosiy rang munosabatlarni

idroq qilish va tasvirlash.....40-46 betlar

2.3.Tasviriy san'at o'qitishning tarbiyaviylik xarakteri.....47-51 betlar

2.4. Tasviriy san'at fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi.....52-68 betlar

**XULOSA.....69-71 betlar**

**ILOVALAR.....72-85 betlar**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....86- bet**

**Introduction**

**Peyzazh** (fr. Paysage, from pays - a country, terrain) - a genre graphic arts (as well as separate product of this genre), in which main subject of the scene is primordial, or in one or another degree transformed person a nature. The Modern beliefs about landscape ed on length century with development artistic acceptance for his(its) scenes. In landscape product special importance is added building of the prospect and compositions of the type, issue of the condition of atmosphere, air and light ambience, their variability.

**The Landscape** - relatively young genre painting. The Age images natures appeared only as scene of the ambience of обитания personages, as window dressing for icons, for scenes genre plot and portrait subsequently.

**THE LANDSCAPE** - a word, which marks, except the general type of terrain and descriptions of the nature in literature, one of the genres graphic arts. The Subject of the landscape - terrain (from fr. landscape - "terrain", "country"), surrounding ambience, natural or transformed person nature (the land with her(its) landscape, type of the mountains, rivers, flap, wood), city and rural terrain. Accordingly distinguish natural, rural and town (architectural, industrial and others) landscapes. In natural select the seascape ("марина", but artist, expressing sea, name "painter of seascapes") and cosmic, astral - a scene celestial space, stars and planets. The Special place in town landscape occupies ведута - a documentary exact scene.

In narrow and строгом sense follows to distinguish the landscape and landscape scene. The Landscape - "portrait" scene натурного type, that that there is that real exists. This as it were picturesque or graphic "фотоизображение". It individually and inimitable, his(its) possible, deform, but it is impossible придумать, сочинить. Unlike it landscape scene - any written by means of imaginations landscape types. The Term "landscape" usually means either or both of them. The Landscape - not simply scene, but always artistic image natural and town ambience.

**Kirish**

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli hayotning barcha jabhalarida turli ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu ishtimoiy iqtisodiy o'garishlar o'zbekistonning kelajagini ta'minlovchi yoki avlodlarni tarbiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan ta'lim tarbiya tizimini ham tubdan isloh qilishni talab etmoqda. O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat ekanligini belgilashda ko'pgina sohalarda e'tibor berilgani kabi yoshlarga tasviriy san'at sirlarini o'rgatish ham bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan mustaqillik yillarida e'lon qilinayotgan muhim qarorlar o'tkazilayotgan tadbirlar fikrimizning yorqin misolidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida berilganidek yoshlarning nafosatini o'stirish, ularni san'at gulshanidan, avlod-ajdodlarimizning boy me'rosi va umum jahon sivilizasiyasida erishgan san'at namunalaridan bahramand qilishlik, yoshlarni tasviriy san'at sohasini o'rgatishda muhim sanaladi.

Ta'lim tizimida sharq alomalari san'at sohasidagi fikrlari va ularning yoshlarni tarbiyalashdagi o'ziga xos ijobiy tomonlarini inobatga olgan holda amalda qo'llanildi. Ulkan ijodkor allomalar Kamoliddin Bekzod, M.Mo'zaxhib, Murod Samarqandiy kabilarning yirik san'at asarlari bilan tanishish sharafiga mustaqillik tufayli erishildi.

San'atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakillanib bordi: me'morchilik, haykaltaroshlik, rang tasvir, grafika, amaliy bezak san'ati va boshqalar. Ularning barchasi inson ma'naviy hayotining muhim qismi bo'lib, yuksak badiiy ideallarni, go'zallik haqidagi tushunchalarini ifoda etadi. Bir san'at turi boshqasidan using mazmuni, badiiy-ifodaviy vositalari va uslubi, materiali, obrazli anglash darajasi, his-tuyg'ulariga ta'siri va hayotiy ahamiyati bilan varq qiladi. Har bir san'at turi taraqqiyot, tanazzul va tushkunlik davrlarini boshdan kechiradi, rivojlanish jarayoni bir tekis kechmaydi. Lekin doimo o'z chegarasini va badiiy vositalarini kengaytirish imkoniyatiga ega. Bunga ba'zan boshqa san'at turlarinig, shuningdek, fan texnikaning erishgan yutuqlarini tabiiy o'zlashtirish orqali erishililadi.

Tasviriy san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir, rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim urinni egallaydi.

Tasviriy san'atning muhim turlaridan biri grafika san'ati sanaladi. Grafika tasviriga bo'lgan ehtiyoj esa ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'la boshlagan. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi arxeologik qazish ishlari bu yerda yashagan xalqlarning tasviriy san'ati ancha yuksak **bo'lganini** ko'satadi. Ular ish faoliyatlarini qoya toshlarga o'yilgan tasvirlarda aks etganlar.

Respublikamiz hududida miloddan oldingi IV asrda har qaysi xalqlar o'zini chetki dushmanlardan himoya qilish uchun qalin va baland devorlar, qo'rg'onlar va istehkomlar qurishgan. Istehkomlarni qurishdan oldin albatta ularning tarhi (plani) chizib olingan.

Shunday qilib, o'zbekisto hududiga asta-sekin arxetektura qurilish chizmalarini bajarish takomillasha brogan va shu chizmalar asosida binolar qurish shunday yuqori darajada ko'tarilganki, so'ngi 10 asrdan ortiq vaqt davomida Buxoro shahrida avlodlarimiz tomonidan bunyot etilgan tarixiy obidalar, turar joy binolari hozigi kunga kelib jahon arxitektura san'atining durdonalriga aylangan. Shu sababli ham Buxoro ko'chalari (eski shahar) ni "ochiq osmon ostidagi mo'zey" shahar deb bekorga aytmasalar kerak.

## **I BOB.**

### **1.1.Buxoro tarixiy obidalarohaqida ma'lumot**

San'at o'z vositalari yordamida dunyoni tan olish, insonda ma'naviy sifatlarni shakllantirish, ongli sezgilarni, dunyoqarashni kengaytirish bilan chegaralanmaydi, balki qobiliyat va iqtidor kabi ta'limiy sifatlarni ham uyg'unlashtiradi. San'at asosida badiiy jismlar orqali tevarak atrofdagi, hayotda yo'z berayotgan barcha narsalarni haqqoniy tasvirlash kabilarda o'z ifodasini topadi. Yuqorida qayd qilinganidek, rang-tasvir asarlarida ham kelgusida insonning ish faoliyatida yangi shakldagi estetik xususiyatlar tarkib topishi bejiz emas. O'zbekiston hududida qadimdan yaratilgan asarlar ichida faqat haykaltaroshlik, amaliy san'at namunalari balki ko'p sonli devoriy sur'atlar ko'zga tashlanib, o'z jozibasini bilan barchani o'ziga maftun etganligi sir emas. Bunday noyob san'at asarlarining ko'pchiligi yo'qolib ketgan bo'lsa-da, Afrosiyob qal'alari yoki Varaxsha qo'rg'onlarida bajarilgan mahobatli rangtasvir asarlari barchamizga o'z davrining maishiy hayotidan ko'pgina sir-sinoatlar haqida so'zlab berishga qodirligi haqida shubhamiz yo'q.

Darhaqiqat, mamlakatimiz hududida ko'plab urush, jangu-jadallar bo'lib o'tganligi islom dinida surat chizish man etilganligi tufayli rangtasvir sohasi anchagina oqsaganligi barchaga ma'lum. Garchi shunday bo'lsa-da, XIV-XVI asrlarga kelib K.Behzod asos solgan sharq miniatyurasi rangtasvirida yangi va o'zgacha maktab yaratilganligidan dalolat beradi. XV asr rangtasvirida ayrim kamchiliklar: nisbat va perspektiva qonunlariga amal qilinmagan bo'lsa-da, ranglarning nafis va sofligi, o'zaro uyg'unlashuvi, O'rta Osiyoning turmush tarzidan etarlicha ma'lumotlarni bizga etkazib berdi. Chunki ular o'ziga xos Sharq rangtasvir maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldilar, bu o'z navbatida butun er yo'zida tan olindi.

XV-XVI asrlar O'rta Osiyoda uyg'unlash davri deb atalishi ko'p tomondan san'at rivoji bilan bog'liq edi. Aynan shu davrlarga kelib nafaqat rangtasvir, balki me'morchilik, adabiyot, musiqaning ham eng rivojlangan, gullab yashnagan davri deb e'tirof etiladi. Chunki bu davr buyuk A.Temur davridan boshlanib, uning

targ'iboti izdoshlari davomchilari tomonidan amalga oshirilgan edi. Lekin bu jarayon keyingi asrlarda diniy qarashlar natijasida va to'xtovsiz urushlar jarayonida so'nib bordi. XX asr O'zbekiston Respublikasi hayotida ulkan o'zgarishlarning yuzaga kelishi, shuningdek, tarixning yangi sahifalar yoritilishiga zamin yaratdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rus mamlakatiga qaram bo'lgan O'rta Osiyoning elkasiga og'ir musibatlar tushdi. XX asrning oxiriga kelib respublikamiz mustaqillikka erishdi. Asrlar davomida yurak qo'rida yotgan orzu-istaklar Respublika prezidenti I.Karimov tomonidan yuzaga chiqarildi. Ming yillik o'z tarixiga ega bo'lgan O'zbek xalqi respublika prezidenti I.Karimovning sa'y harakatlari tufayli tez orada xalq xo'jaligining barcha sohalarida shiddat bilan ulkan yutuqlarni qo'lga kirita boshladi. Mamlakatimizda fan, texnika, san'at, shuningdek, bir necha davlat ahamiyatiga molik bo'lgan sohalar ulkan o'zgarishlar bilan jahonning minbarlarida tan olina boshlandi. Ayniqsa, adabiyot, musiqa, me'morchilik shuningdek tasviriy san'at sohasida ko'zga tashlanadigan yangiliklari o'zining muhimligi bilan jahon ahlini lol qoldirdi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va qator boshqa shaharlarda o'zgacha husn va libos kiygan inshootlarni qad ko'tarishga zamin yaratildi. Tarixiy obidalar ta'mirlanib, yangi tipdagi zamonaviy inshootlar bunyod qilindi. Chet el sayyohlarining to'xtovsiz qatnovi, mehmonlarning hayratlanishi, yigirma yil ichida yo'z bergan tarixiy dalillardan guvohlik beradi. Bu borada tasviriy san'atda ham ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuzaga keldi. Rangtasvirda ko'p sonli o'zbek musavvirilar etishib chiqib, nafaqat yurtimizda balki chet elda Franstiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston va qator mamlakatlarda badiiy ko'rgazmalarda qatnashib anchagina muvaffaqiyatlarga erishganliklarini qayd qilish mumkin.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda geografik joylashuviga ko'ra siyosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bu regionda eng kadimiy taraqqiyot markazlari joylashgan bo'lib, dunyo tan olgan yirik shaxarlar Samarqand, Buxoro va Xiva kabi kadimiy shaxarlar orqali Sharq va G'arbni o'zining madaniy salohiyati bilan

bog'liq tarzda Xitoydan Ispaniyagacha, Evropadan Hind okeanigacha barcha jabhalarda ko'prik vazifasini o'tagan. I.A. Karimovning OON Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqidan. Buxoroning ertaklarida aytilgani kabi ko'hna va qadimiyligini butun dunyo tan olganligi sir emas. Nafaqat shahar balki xalqi ham qo'li ochik, mexmondo'st ekanligi o'rta asrlardanok butun dunyoga ovoza bo'lgan. Qadimiy shahrimiz-Respublikamiz mustaqillikka erishgach, viloyatimizning eng ko'rkam va chiroyli shaharlaridan biriga aylandi.

Buxoro shahrinig o'tmishi o'ta muhim va rango-rang tasodiflarga boy. Ikki ming besh yo'z yildan ortiq davr ichida bu shahar nimalarni boshidan kechirmadi, gohida u yuksalib, gohida esa bosqinchilar olovida yonib kul bo'ldi. Tarixiy dalillar, Aleksandr Makedonskiy qo'shini, Muslim ibn Kutayba boshchiligida arab lashkarlari, Chingizxon qo'shinlari jonajon shahrimiz kulini ko'kka sovurgan edilar. Yillar o'tib, asrlar davomida Buxoro shahri qiyofasi o'zgacha chiroyga ega bo'la bordi. Mahalliy xalq o'zining milliy madaniyatini, qadriyatlarini saqlab qolishga intildi va bu yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishgach, shaharning iqtisodiy salmoq doirasi kengayib, o'zining asl qiyofasini tiklab, ma'naviy tanglikdan chiqib oldi. Xozirgi paytda chaqrab turgan quyosh ostida millionlab Qorako'l qo'y-qo'zilar ona erda million tonnaga yaqin don, oq oltin etishtirilayapti, bundan tashkari iqtisodiy jihatlar xam yukoriga chiqib oldi. Xalq xo'jaligining turli sohalarida ancha yutuqlarni qo'lga kiritayotganini xam e'tirof etish joiz.

Buxoro tarixini o'rganish va uning ko'p ming yillik an'anaviy qadriyatlarini tiklash va saqlab qolish muammosi 1997 yilda o'zining ijobiy ko'rsatkichlarini yuzaga chiqardi va Yunesko qaroriga ko'ra Buxoroning 2500 yilligi yubileyi tantanali ravishda nishonlanib xalqaro «Buxoro-2500» fondi tashkil etildi. Eng muhimi Buxoroda nimalarni asrab avaylash degan muammo o'z echimini topdi. Chunki shahar o'zining madaniy me'roslariga ega bo'lib, Respublikaning markaziy shaharlaridan biriga aylandi. Chunki o'z taraqqiyoti jarayonida o'ta nodir me'moriy majmualarni in'om etadi. Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi



shuningdek, o'nlab me'moriy inshootlar shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turganligi fikrimiz dalilidir.

Aniqroq qilib aytganda, Buxoro madaniy ko'rkiga aylanib qolganligini faxr bilan tilga olish mumkin. Shu boisdan ham qolgan katta va kichik tarixiy ahamiyatga molik inshootlar hozirgi kunda ta'mirlanib o'zining asl qiyofasini topib bormokda. Darvoqe, bu ko'hna shahar ham iqtisodiy, ham siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li orqali G'arb bilan Sharq o'rtasida savdo sotiq yo'lini bog'lab turganligi sir emas. Eng muhimi bu zaminda ko'p sonli dunyoda mashhur olimlar, shoir va me'morlar tavallud topganligi nazardan chetga qolmasligi kerak. Buxoro zaminida Ismoil al-Buxoriy, ibn Sino, Rudakiy, Farobiy kabi donishmandlar dunyoga kelganligi uning faxri deb e'tirof etiladi.

Hozirgi kunda shaharning qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Ko'chalar, bozorlar, katta-kichik mexmonxonalar, sanoat korxonalarini o'zgacha qiyofada shahar qiyofasiga o'zgacha chiroy qo'shgan. Shuning uchun hozirgi kunda Angliya, Fransiya, Xitoy, Koreya, Arab mamlakatlaridan izi sovimay sayyohlar qatnab turishibdi. Bugungi kunda Buxoro o'zining 12 ta mo'zeyiga ega. Mo'zeylar nafaqat bizning balki, jahon madaniyatida muhim o'rinlarni egallashi bilan maqtovgacha loyikdir. 2010 yilda shaharning shimoliy hududida "Ko'hna va boqiy Buxoro" majmuasi bunyod qilindi. Bu esa ezgu niyatlardan birini amalga oshganligidan dalolatdir.


Buxoro shahrining paydo bo'lishi tarixidan lavhalar. Ko'pgina tarixiy dalillar bu shaharni Amudaryo vohasida Zarafshon daryosi atrofida joylashganligini asoslab beradi. Aslida Buxoro geografik joylashuviga ko'ra Karmanadan Zarafshongacha bo'lgan hududni tashkil etadi. Dastlabki ma'lumotlar uning nomi bilan bog'liq bo'lib, buning zamirida «Budda monastiri» degan ma'noni anglatadi. Yana bir ma'lumot arab tarixchisi Numidkent Tabari tomonidan qoldirilgan bo'lib (Xudolar va diniy targ'ib qiluvchilar tarixi nomli 10 tomli kitobida) O'rta Osiyo Madinasi deb yuritilganligi, 4-asrga kelib esa, So'g'dcha Numidkent, 7-8-asrlarda Puxo, Bugo nomlari bilan yuritilganligi haqida

ma'lumotlar mavjud. Aslida bu mavze Karmana Malik cho'li Konimex va Nurota vohasida joylashgan bo'lib yagona cho'llar atrofida juda ko'p ko'llar: Maxonko'l, To'dako'l, Chuqurko'l, O'rtako'l, Chandirko'l kabilar mavjud bo'lgan. Shu tufayli ko'p asrlar davomida cho'l va ko'llar Buxoro iqlimining o'zgarishiga va erlarning sho'rlanishiga sabab bo'lgan. Natijada Buxoro ekologiyasining bo'zilishiga olib kelgan, buning natijasida esa vohada turli xil kasalliklarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Biz tarixiy davrda yashab turib ona shahrimizni kelajagi uchun ota bobolarimizning, ajdodlarimizga qoldirgan urf-odat qadriyatlarini asrab avaylab, mustahkamlab barcha kuch va bilimlarimizni sarflashimiz kerak. Mazkur yo'nalish bo'yicha barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida ancha tarbiyaviy ma'rifiy-ma'naviy ishlar olib borilayapti. Aksariyat ishlarni salmoqli hissasi maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlab umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, shuningdek oliygohlarda olib borishni nazarda tutilib, kelajak avlod oldida Respublikamiz prezidenti Islom Karimov da'vat va chaqiriqlariga ishonarli tarzda amal qilinayapti. O'ylaymizki bu ishonch o'zining kelajak oldida eng mas'uliyatli, sharaflil, mazmunli namunasi bo'lib qoladi.

### **Sitorai Mohi Xossa" me'moriy majmuasining yaratilish tarixi**

Olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik kazishmalar Sitorai Moxi Xossa karorgoxi qurilishidagi dastlabki binolar aynan mangitlar sulolasining XIX asr birinchi yarmida xukmronlik qilgan Buxoro amiri Nasrulloxon davrida barpo qilinganini ko'rsatmoqda. Buxoro davlat muzey-kurixonasining xujjatgoxida saklanayotgan usha davrlarga mansub loyixalardan aniqlanishicha, amir Nasrulloxon davrida bu erda xukmdor va uning oila a'zolari orom olishlari uchun aloxida kushk va bir necha yordamchi binolar, shiyponlar barpo qilingan. Ammo qadimiy loyixalarni urganish jarayonida binolarning ko'pchiligi qurilishi poyoniga etkazilmagani malum bo'ldi. Bu esa xukmdor karorgox qurilishini umrining oxirida boshlab, niyatini oxirigacha amalga oshirishga ulgurmaganidan dalolat beradi. Afsuski, Nasrulloxon davrida karorgoxning ilk binolarini bunyod



etishga rax- barlik qilgan me'morning xam ismi sharifi malum emas. Amir Nasrulloxon 1860 yilda rixlatga ketib, Buxoro taxtiga uning o'g'li amir Muzaffarxon kutarilgani bilan karorgox qurilishi tuxtab kolgani yuk. Taxt vorisining ko'rsatmasi bilan mashxur saroy me'mori Ostonqul Xafiz o'g'li saroyning yangi binolari loyixalarini yaratgan va qurilishni davom ettirgan. Karorgoxda amir Muzaffarxon davridan XX asrgacha etib kelgan bino katta mexmonxonadir. U yog'ochdan kush sinchli qilib barpo etilgan keng va baland katta xonadan xamda ikki tomonida mavjud bo'lgan boloxonali ayvonlar va kichik xonalardan iborat bo'lgan. Noma'lum musavvir va nakkoshlar mexmonxona devorlarida xafsala bilan chizilgan nakshlarda rang-barang manzaralarni ustalix bilan aks ettirishgan. Mexmonxonaning shimol tomonida me'mor murakkab sharafali naxshinxor yarim gumbaz bilan koplangan mexrob.taxt uchun qurilgan xushkni joylashtirgan.

## **1.2. Buxoro hududidagi qadimgi ko'chalar va ularning nomlanishi**

Joy nomlari jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'langan ma'naviy ehtiyojdir. Darhaqiqat, insoniyat taraqqiyot davomida, o'z ehtiyojini qoldirish uchun tobora qulaylik yaratadi. Har bir yaratilgan qulaylik (g'oya) esa bugungi va ertangi kunimizning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Faraz qilaylik, kutilmaganda shahar, tuman, qishloq, ko'cha, maydon yoki xiyobonlarning nomi tasodifan go'ib bo'lib qoldi. Shunday paytda odamlarning holatini bir ko'z o'ngingizga keltiring. Pochta, telefon, telegraf xizmati o'sha ondayoq to'xtab qoladi. Transportlarning yurishi izdsan chiqadi. Uyingizga chaqirilgan "tez yordam" mashinasi borar manzilini bilmay ovora bo'lib qoladi. Shunga o'xshash yo'zlab muammolar girdobida odamlar sarson sargardon bo'ladi. Shu farzning o'zidan odamlarning kundalik ehtiyoji uchun joy nomlarning nechog'lik zarurat ekanligini tasavvur qilish mumkin.

Joy nomlari kundalik ehtiyojdan tashqari ma'naviy ehtiyoj hamdir. Ularning nomlanishida xalqimizning tarixi, urug'-ajdodi, madaniyati, tili, kasb-kori, iqlimi, tabiiy –geografik sharoiti o'z ifodasini topgan.

“Bugungi kunda yoshlarimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta- katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'bekona nomlar, shior va lavhalarni ko'rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizga bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi ” (I.A.Karimov (Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch').

Butun respublikamiz bo'lgani kabi, sobiq kamunistik to'zum davrida Buxoro shaxridagi ko'plab ko'chalarning tarixiy nomlari asossiz ravishda o'zgartirildi. Ularning o'rnini Ilya, Ulyanov, Lenin, Frunze, Krunskaya, Komuna, Sovetskaya, Dekabristov, Aktyabrskaya, Kommunistecheskaya kabi nomlar egalladi. Qadimiy shahar ko'chalarining peshtoqasiga yopishtirilgan bunday nomlar sho'rolar hokimiyatining xalqimiz ma'naviy ildiziga bolta urish uchun maxsus o'ylab yuritgan siyosatining bir ko'rinishi edi.

Oллоhga beodat shukronalar bo'lsinkim, mustaqillik shaxar qishloqlarimizning asl qiyofasini qaytarib berdi. Ularning yo'zidan nomunosib

nomlar yulib tashlandi. Buxoro shaxrining shox- ko'chalariga Abduxoliq G'ijduvoni, Ibn Sino, Abu Xafs Kabir, Bahovuddin Naqshband, Shox Axxi nomlari qo'yildi. Bu har bir vatandoshimiz ongi va qalbida vatanga sadoqat, milliy iftixor hissi joy olganligining yorqin ifodasidir.

20 asrning buyuk allomasi Xoja Ismatullo Buxoriy shunday degan edi:

Chun zor hohyo kushtanam, az kuy xud duram marom,

Man bulbuli betoqatam, duram zi gulzoram makum.

(zorliqda meni o'ldir, men rozi man, lekin vatandan meni judo aylama.

Men betoqat bulbul man, gulzorimdan o'zoqda o'dirmagin)

Xoja Ismatullo Buxoriyning nomi sho'rolar davrida o' yurtida unutilga, ziyoratgohlari esa xarobaga aylangan edi. Istiqlol sharofati bilan o'z yurtining shaydosi bo'lgan shoirning ziyoratgohlari obod bo'ldi va u mavze shoirning nomini oldi. Buxoro shahri ichidagi Shox Axxi masjidi atrofidagi go'zar nomi ham Shox Axxi deb ataladi. Bu labi hovo'zdan Samarqand darvozasiga qarab boraverishida joylashgan.

Hazrat Poyanda Muhammad Shox Axxi naqshbandiya tariqatining rivojiga muhim hissa qo'shgan shayx, o'z zamonasining murshidi sohib karomad avliyo, ulug tarbiyachi bo'lganlar.

Bu zot sharif Ahsikat shahrida tug'ilgan. Ahsikat 20 asrgacha Farg'ona viloyatining markazi bo'lib bu shaharda ilmu irfon, san'atu ma'naviyat rivoj topgan. Ipak yo'lining chorraxasida joylashgan bu shahar keyin xarobaga aylandi. Ayni shu kunlarda qadimiy Axsikat namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududidadir.

Professor Homidjon Homidovning yozishicha, Hazrat Poyanda Ohund Axsikarti Toshkent, Samarqand, Buxoro madrasalarida ta'lim oldilar. So'ng Balxga borib, Shayx So'fiy Xirad Axsikartiyadan irshot xati oladilar. Muhammad Mutribiy

‘Tazkiratush Shuaro’ kitoblarida Hazrat Axsikatiyadan she’riy me’ros qolganini bayon etgan.

Olim Komilxon Kattayevning yozishicha, Hazrat Poyayanda Muhammad Shoh Aysi tariqat sabog’ini Mahmud A’zam nomi bilan mashhur bo’lgani Hazrat Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniydan olganlar.

Poyanda Muhammad to’liq ismlari Muhammad bin Mir Darvesh Muhammad bin Mir Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiydir.

Mavloni Poyanda Muhammad Shoh Aysi Hazrat Maxdumi A’zamning ko’rsatmalariga muvofiq Buxoroga keladilar va shu yerda naqshbandiya tariqatidan saboq berib turg’un bo’ladilar.

Buxoro Amirlari, ulamoyu kosiblari Hazrat Shoh Axsining muridlari bo’lib, bu zoti sharif maslahatlariga amal etgan.

‘Naqshbandiya tariqatiga oid qo’lyozmalar fihristida’da quyidagi muhim ma’lumotlar bor: “Boqiy Muhammad shikoriy Fanoiy al Buxoriy hazratlari Poyanda Muhammad shogirdlari bo’lib, bir necha asarlar ijod qilgan. Boqiy Muhammad Shikoriy “Maqomatul orifin” (Ma’rifat egalarining maqomati”) nomli asarning muallifi hisoblanadi”. Asarda muallifning ustoz va piri shayx poyanda Muhammad ibn Mir Darvesh Muhammad ibn Miri Obid al Husayn al Axsikatiy al Abosiyning targimai holi yoritilgan. Bundan tashqari, unda fors-tojik adabiyotida uchraydigan tasavvufga oid majoziy iboralar lug’ati va izohi berilgan. Asar 1607-yilda yozilgan.

Boqi Muhammad shikoriy al Buxoriyning “Jazabotul oshiqin” nomli kitoblari ham bor.

Hazrat Shoh Aysi Buxorning Fayzobod mavzesida ulkan xonaqoh qurdirganlar. Xonaqoh milodiy 1596-yil qad ko’targan. Shuningdek, Buxoro shahri Samarqand ko’chasida Hazrat poyanda Muhammad katta jonu masjidi, ikki qavatli maktab, gumbazli taxoratxona ham qurdirgan edilar. Bu obidaning nomi Shoh Aysi jomesidir.

Sharafiddin Roqimiyning “Tarixi tomm” kitobida yozilganki, Hazrat Maxdumi A’zamning o’g’illari, piri murshid Xoja Abdulxoliq va Mavlono Poyanda Muhammad Shox Aysi bir yilda vafot qiladilar.Boqi Darzi Buxoriy ularning har ikkisi vafoti tarixini bildiruvchi qit’ani yozgan:

Du murshid az jahon raftand, burdand

Qaroru sabr az dilho sarosar.

Bar vay sinaho az bahri tarix.

Raqam kardand:”Oh dili muqarrar”.

Mazmuni: Jahondan ikki murshid o’tdilaru

Sabru qaror dildan ketdi.

Ularning vafot tarixi “Oh dili muqarrar” bo’ldi.

“Oh dili muqarrar ”dan hijriy 1010 yil hosil bo’ladi.Xudi shu kitobda Hazratning qabr joylari haqida ham ma’lumot keltirilgandir:

Dar Buxoro ast on rofe maqom

Xoki o’ majai xosu om

Har bahoriston makon obod

On zaminro hast nom Fayzobod

Mazmuni: Bu oily maqom joy Buxorodir.U yerda xosu avomning ziyoratgohi hisoblanadi.

Juda ham obod bo’lgan bu joyning nomi Fayzoboddir.

“Tuhfat az zoirin” kitobida yozilgaki, Hazrat Poyanda Muhammad Shox Aysi qabirlari Fayzobod mavzesidir.Buxoro shahri ichidagi Shox Aysi masjidi atrofidagi go’zarning nomi ham Shox Aysi deb ataladi.Fayzobod mavzesidagi Hazrat qurdigan xonaqoh Shox Aysi xonaqohi deb atalgalmoqda.Mazkur

xonaqohning kunchiqar tomonida mozariston bor. Ushbu mozorda Hazrat dafn qilinganlar.”Tuhfat az zoirin ” da Hazrat Shox Axsining murid, shogird, ashobalari haqida ham ma’lumot bor.Ular quyidagi avliyo, allomalardir: Hazrat Mavlono Masti, Mavlono Oxund Kamoliddin Vag’anzaviy, Mavlono Muhammad Qosim al Buxoriy Darvozai Obi, Mavlono Shoh Muhammad Sarrof va boshqalar.

Shuni ham takidlash joizki, sobiq ittifoq zamonida Aysi jome’sida (bu shahardagi Samarqand ko’chasidir) poyafzal ombori, xonaqohda esa jamoa xo’jaligi ombori joylashgan edi. Ayni shu kunlarda jome’ ham xonaqoh ham namozxonlar ixtiyoriga berilgandir. Fayzobodagi Hazrat Shox Aysi ziyoratgohlari obod etilgan.

Ayniqsa berilayitgan yangi nomlarning milliy istiqlol g’oyasiga mos bo’lishi, doimiy diqqat-e’tiborda bo’ldi. Shahar tuman va qishloqlarimizning go’zal binolari peshtoqasini O’zbekiston, Mustaqillik, Istiqlol, Istiqbol, Umid, Shodiyona Hayot obod nomlari bezab turibdi.

### **1.3. O’zbek rassomlari ijodida tarixiy obidalar manzarasi.**

O’rol Tansiqboyev mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda dunyoga keldi va 1974 yilda vafot etgan. Yoshligidan san’atga



qiziqib, Toshkentdagi badiiy mo'zey qoshidagi to'garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni uning rahbari rassom I.Repinning shogirdi N.Rozanovdan oldi. To'garakka qatnab yurgan yillaridayoq u ko'plab kompozistiyalar ishladi.

Uning ana shunday ishlaridan biri 1927 yilda yaratilgan "Toshkentboev portreti" edi. Studiyada tasviriy san'atdan olgan bilimlaridan ko'ngli to'lmagan O'.Tansiqboyev Rossiyaning Penza shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi.

U erda I.Repinning shogirdlari I.Goryushkin-Sorokopudov va N.Petrovdan san'at sirlarini o'rgandi. Ayniqsa, uni Penza mo'zeyidagi ko'plab Rossiyaning mashhur rassomlarining tasviriy san'at asarlari katta taassurot qoldirdi. Ularni o'rganish va nusxalar ko'chirish O'.Tansiqboyev uchun katta maktab vazifasini o'tadi.

Tansiqboyevning mustaqil ijodi O'zbekistonda milliy san'atni tiklash davriga to'g'ri keladi. U o'z ijodining dastlabki yillarida anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, biroq uning asosiy ishlari 1940 yillardan so'ng boshlandi.U ikkinchi jahon urushi bo'lgan joylarga O'zbekiston delegastiyasi tarkibida borib, u erlardan katta taassurotlar bilan qaytdi. Natijada "Ozod etilgan erlarda", "Mal'unning yo'li", "Partizan ayol", "Havo jangi" kabi bir qator asarlar yaratdi. 1943 yilda unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan \_san'at arbobi unvoni berildi.

Urushdan keyingi yillarda O'.Tansiqboyev katta o'lchovdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga "Sholichilik kolxozida hosilni yig'ib olish", "Bahor", " Paxtani sug'orish ", "Jonajon o'lka", "Issiqko'l oqshomi", "Tog'da" kabilarni kiritish mumkin.

Rassom ijodining gullagan davrlarida yaratgan asarlaridan biri "O'zbekistonda mart" deb ataladi. 93- rasm. Uning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so'qmoq, daryo qirg'og'ining baland-pastliklari, qiyg'och gullagan daraxtlar, o'zaniga sig'may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog'lar, quyosh nuriga hamoxang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag'ishlaydi.

O'.Tansiqboyev o'zining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurilayotgai kanallar, suv omborlari, elektrostanstiyalar, neft qidiruv ishlari bilan hamohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u "Tog'da bahor", "qayroqum GESi tongi", "Angren vodiysi" kabi bir qator asarlar yaratdi.

Rassomga shuhrat keltirgan asarlardan biri "qayroqum GESi tongi" deb ataladi. Bu asarda, yuqoridan turib ko'zatilgan elektrostanstiya va suv ombori lirik ohangda tasvirlangan bo'lib, undagi qurilishlar tabiat bilan hamoxang uyg'unlashib ketgan.

Suvrat markazidagi erta tongda zangori tusga kirgan elektrostanstiya betoni cheti ko'rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyuladi.

Asarni ko'zatgan odam sahroga jon bag'ishlovchi mo''jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo'y cho'zgan musaffo dengiz qa'riga ko'milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan xis etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki, dengiz, osmon va erlarning bepoyonligi koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o'ziga tortadi. Manzarada suv, cho'l, tog' va fazoning yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli u nihoyatda salobatli ko'rinadi.

O'.Tansiqboyev ijodiga xos bo'lgan asarlardan yana biri "Tog'dagi qishloq oqshom" dir. Asar vertikal holdagi kompozistiyadan iborat, unda Respublikamizning tog'lik go'zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda o'zoqlarda yaslanib yotgan moviy tog'lar, chiroqlarini endigina yoqan xonadonlar, qishloq yonidagi oqib o'tgan soy, kishilar va bolalar tasviri ko'zga tashlanadi. Bu odam shakllari manzaraga hamoxang tarzda hayot bag'ishlaydi.

Suratdan ko'rinib turibdiki, kech kirib oqshom og'usida quyosh botgan va tog' cho'qqilari-yu, qoyali toshlarni tun o'z qa'riga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qo'ylarning marashi, soynig shuvillashi, chigirtkalarining chiyillashi eshitilayotgandek tuyuladi. Kechki yog'du bag'rida, uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u er, bu erlarda ko'zga tashlanadi. Kech kirib, serviqor tog'lar orqasiga quyosh berkingan, uning o'rniga oy chiqmoqda.

O'.Tansiqboyevning diqatga sazovor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan "Sirdaryo" nomli asari Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadi.

1960 yillarda rassom "Tog'yo'li", "Angren-qo'qon yo'li", "Angren daryosi", "Tog'da", "Xumson oqshomi", "Chorvoqqurilishida", kabi asarlar yaratdi. Umrining oxirlarida yaratgan "Ko'z tongi", "Mening qo'shig'im", "Chordaryo suv omborida" kabi asarlar rassom ijodining cho'qqilari bo'lib qoldi.

Uning asarlariga xos harakterli xususiyatlar Ona - Vatanga muhabbat, uni ulug'lashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmono'par tog'lar, ilon izi kabi o'zoqlarga ketgan yo'llar, moviy osmon, osmon bilan tutashib ketadigan go'zal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, yorqin rangdagi odam tasvirlari ham ifodalanadi.

O'.Tansiqboyev katta hayot yo'lini bosib o'tdi. U 1934 yillardayoq Moskva va Finlyandiyadagi o'tkazilgan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasida o'z acarlari bilan qatnashdi. O'.Tansiqboyev 1958 yilda Bryussedaga xalqaro ko'rgazmasida "qayroqum GESi" asari bilan qatnashib, xalqaro kumush medal bilan taqdirlandi.

Vatanimiz san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom xukumatimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston halq rassomi, Rossiya badiiy akademiasining haqiqiy a'zosi edi.

Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari sanat mo'zeyi, qozog'iston, qirg'iziston, Tojikiston, Moldaviya, Latviya, O'zbekiston san'ati mo'zeylaridan o'rin olgan.

O'.Tansiqboyev manzara janrida ijod qilib, birinchilar qatori o'chmas iz qoddirgan musavvirlardan edi. U o'z asarlarida O'zbekistonning go'zalligini, uning jozibasini kuyladi. O'.Tansiqboyevning asarlari bizni Vatanga muhabbat, go'zallikdan zavqlanishga chorlaydi.

## **Bahodir Jalolov**

Jalolov Baxodir 1948 yilda Toshkentda tavallud topgan. U dastlabki badiiy saboqni Toshkentdagi P.Benkov nomidagi badiiy badiiy bilim yurtida olgan.

Keyinchalik I.Repin nomidagi rassomchilik, haykaltaroshlik va me'morchilik institutida o'qigan. Institutida bitirgach, Toshkentga kelib, ijodiy ishlar bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Shu bilan bir qatorda Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutida (Toshkent teatr va rassomchilik instituti) o'qituvchilik qilgan. Uni dastlabki muvaffaqiyatli chiqan ishlari qatoriga "Masharaboz Akrom Yusupov", (1974), "Kulol ayol halq ustasi Hamro Raximova", (1975), "Soniya va mangu O'rol Tansiqboyev xotirasiga", (1977), "Porloq erta". Rassom Sh.Abdurashidov xotirasiga" (1980) kabi ishlarni kiritish mumkin.

B.Jalolovning ko'pchilik ishlari tasviriy san'atning mahobatli rangtasvir turiga mansub bo'lib, u bu yo'nalishda qarshi musiqali drama teatri binosiga (1981), Toshkentdagi kinochilar uyiga (1982), Turkiston saroyiga (1993), "Bahor" konstert zaliga (1982), qo'qon teatri (1987), va boshqa bir qator ijtimoiy va madaniy binolar intereriga devoriy bezak ishlarini bajargan.

Dastgohli rangtasvirda yaratgan muvaffaqiyatli ishlari qatoriga uning "Isfarada bahor", "Tog'qishlog'i", "So'qmoq", "Afg'oniston tongi" nomli asarlarini kiritish mumkin. Uning sermahsul ijodi Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Milliy rassomchilik va dizayn institutidagi pedagogik faoliyati uchun unga professor unvoni berilgan, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi etib saylangan.

Rassomning ko'p yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan qadrlanib, unga O'zbekiston halq rassomi unvoni berilgan.

### **Pavel Benkov**

Pavel Petrovich Benkov 1879 yilda qozon shahrida tavallud topgan. 1949 yilda Samarqandda vafot etgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1939). qozon Badiiy bilim yurtida o'qigan. Peterburg Badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulianning xususiy akademiyasida ta'lim olgan. Italiya, Ispaniya, Franstiyaga safar qilgan. 1913-1928 yillar davomida "Kovalevskiy bolalarining portreti", "Rassom ayol portreti" asarlarini yaratgan. qozon Katta teatrida betakror spektakllarga dekorastiyalar yaratdi. 1929 yilda

Samarqandga kelib 1930 yildan boshlab shahardagi badiiy bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishladi. Uning 30-yillar o'rtalarida yaratgan asarlarida O'zbekistonni, uning qadimiy shaharlari qiyofasi, o'ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o'zbek millati madaniyatini, kishilarini yorqin bo'yoqlarda gavdalantirdi. Uning ("Buxoro timi", (1929;); "Xivalik qiz", (1931;); "Dugonalar", (1940; ) "qaxramonning onasi", (1942); "Janchiga sovg'a", (1945;); "Dutorchi qiz", 1947; "Buxoroda oshxona" 1929, "Eski Buxoro" (1931,) "Minorai kalon" (1930)-; "Ko'cha" (1943), "Registondagi choyxona" (1944), nomli asarlari O'zbekistonning mumtoz me'moriy obidalari va manzaralariga bag'ishlangan.. Uning Samarqandning ko'cha va bog'lari, bozor va xovlilari, maydon va choyxonalarini, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zaligini yorqin va hayotiy ifodalovchi asarlar ham yaratgan. O'zbekistonda tasviriy san'atni shakllanishda, milliy kadrlar etishtirishda xizmati katta bo'lgan.

O'zbekiston tasviriy san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Garchi 7-8 asrlarda san'atning xaykaltaroshlik, me'morchilik va amaliy san'at yo'nalishlarida anchagina ko'zga tashlanadigan noyob san'at namunalari yaratilganligi haqidagi qator asosiydalillarmavjudbulsada, rangtasvir haqidagi deyarli ma'lumotlar bizga yetib kelolmagan.

Lekin 14-15 asrlarga kelib o'rta osiyo xududlari daxam bu soxada ancha namunaliishlar e'tiborga loyiq. O'rta asrlar davri bilan belgilanadigan bu davrda bir qator o'zbek naqqoshlari va miniatyura nafis rassomlar rangtasvirning yangi yo'nalishlarini jaxon peshtaxtasiga olib chiqishga muvoffak bo'ldilar. Terannakkkosh Kamoliddin Bexzod, Maxmud Mo'zaxxib, MaxmudSamarqandiy, Raxmatillaal-Faqir kabi musavvirlar kitob illyustrastiyasi va miniatyura rangtasvirida ma'lum darajada muvaffakiyatlarni 20 asr boshlarida kelib O'zbekiston xududidaV.VVereşagin, R. Razin, S. Svyatoslovskiy, R. Zommer, K. Korovin, N. Kazakov, I. Yusupov kabi rusrassolarining kirib kelishi o'zbek rangtasvir xazinasining yaralishiga asos bo'ldi. UlarorasidaV. Vereaginning asarlari juda muxim axmiyat kasb etadi. Rassomning asarlari orqali 19 asr tarixiy

taraqqiyotiga aniq baxo bersa bo'ladi. Mamlakat xayotidan olingan lavxalar, jang manzaralari, maishiy xayot davrning turmish tarzidan xikoya qiladi. 14-15 asr rassomlari o'z asarlarida teran falsafiy mazmun va g'oyalar o'z aksini topgan bo'lsa, 19 asr oxiriga kelib qolgan rassomlari jodida ulkaning o'ziga xos tabiati me'moriy ko'rinishlari onaer ko'rinishlarini tarannum etadi.

Ayniqsa, rassomning «Turkistonturkumi» asari davrning tarixiy voqealariga sharxi o'z ifodasini topgan.

Oktyabr inqilobidan so'ng O'zbekiston tasviriy san'ati butunlay yangi yo'nalishga kirib keldi. Dastlab o'lkamizning tabiati va madaniyati uchun yangilik bo'lgan o'zgarishlar rangtasvir, kitobgrafikasi, plakat kabilar shakllangan bo'lsa, P. Burd, N. Ryazanov, I. Kazakov, A. Nikolaev, A. Volkov, P. Benkov, Z. Kovalevskaya kabi rassomlar badiiy rassomchilikning rivojiga turli yo'nalishlarda maktablarochdilar.

A. Volkov, N. Benkov, A. Nikolaev O'zbekiston tabiatining xususiyatlarini ochib berishga kirishdilar.

1920- yillardan so'ngU. Tansiqboyev ijodi shakllanib yangi dekorati yechimdagi manzara janri yuzaga keldi. Buyillardatasviriy san'taturliuslubiy yo'nalishlar;

1. Naturalizm;

2. Ekspressionizm;

3. Abstrakstionizm kabi oqimlar yuzaga kelib, san'atda tartibsiz mavxumliklar xususiyatlari namoyon bo'ldi. 30- yillargacha davom etgan bunday tartibsizliklar asta – sekin o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi. Asosiy mavzular o'zbek xalqining baxtiyor turmush tarzi mexnatkashlar obrazi yangi « qizil » bayramlarini tashkil etadi. Tasvirlar yangilik bilan eskilik o'rtasidagi tafovvutni ochib berishga bo'lgan intilishlar natijasi edi. V. Rojdenstvenskiy xajviy grafikasida S. Malt, I. Ikramov nafis kitob grafikasida O. Tatevosyanlari jodiaynan xajviy tarzda salbiy

xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan edi. 1932- yilda birinchi bor O'zbekistonda badiiy ko'rgazma tashkil etildi. Unda rus rassomlari bilan bir qatorda O' Tansiqboev, B. Xamdamiy, A. Siddikiy, L. Abdullaevlar qatnashdilar. 1934- yilda Moskvada shunday ko'rgazma tashkil etildi.

Endi O'. Tansiqboyev, N. Karaxon, N. Kurzin, N. Kashina, A. Volkov, usta Mo'minlar xam yangi davr mazzulariga murojat qilib zamondoshlar portreti, zamonaviy xayot syujetlarini realistik tarzda namoish qildilar. Litografiya, estamp kabi grafikaturlari rivojlandi. Dastgoxli grafikada portret manzara janrlari yuzaga keldi.

1929- yildan N. Benkov Samarqandga ko'chib keldi. Aslida teatr dekorati bo'lgan bu rassom O'zbekistonda realistik rangtasvir janrini shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uning asarlarida O'zbekistonning Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaxarlari qiyofasi o'ziga xos tabiati, milliy madaniyati kishilarnin go'ziga xos o'zgacha xususiyatlaridagi go'zalliklari yorqin ranglarda ishonarli tarzda gavdalandi. Bunga quyidagi misollarni « Buxoro---», « Xivalikkiz », «Dugonalar », « Eski Buxoro » asarlarini keltirib o'tsa bo'ladi.

O'. Tansiqboyev esa o'ziga xos lirik manzaralar yaratib « Moviymanzara », « Utov », « Tungi sugorish », « Chirchikvodiysida », « Kushigim » yangi saxifabo'ldi. B. Xamdamiy « Ishtugadi », « Kolxozchoyxonasida », « Farxod Xusrav » asari, A. Volkov « Terimchikizlar », « Shaximardonda tushpayti », N. Karazin « Gallaurimi », « Ayollargallazorda », UstoMumin « Okoltin », N. Kashina « Sirdaryodanutish », « Moskva-Korakul-Moskvaavtopoygasi », A. Siddikiy « Tuy », « Avtoportret », A. Abdullaev « Yoshshoirilarxo'zurida » kabi yirik asarlar dunyoga keldi.

Manzara janri o'zbek rangtasvirida muxim o'rin egallab unda O'. Tansiqboyev, N. Karaxon, UstoMumin, R. Temurovlar samarali ijod qildilar.

Ayniqsa O'. Tansiqboyevning « Issikkul » turkumi, « Jonajonulka », « Sirdaryo » kabi asarlari bu janrda muxim urinlarni egallaydi.

UlarqatorigakiribulgurganA. Volkov, B. Benkov, N. Kashina, A. Abdullaev, S. Abdullaev, N. Nabiev, V. Evenkovlarxam samaraliijodqildilar.

Moskva va Leningrad oliy badiiy bilim yurtlarini tamomlaganR. Axmedov, M. Saidov, N. Ko'ziboev, T. Oganegov, Z. Inogomov, Yu. Elizarevlarning kelib qo'shilishi O'zbekiston rangtasvirining maishiy va portret janri doirasini kengayishiga xissa qo'shdi.

R. Axmedov « Deputatayol », « Keksakolxozchi » Portreti, M. Saidov

« Dugonalar », « Xirmonda », « Oila », N. Ko'ziboev « YunusRajabiy », « Xamza », « Cho'ponlar », « Uygonish », Z. Inogomovning « Choyga », « Choyxonachi », « 18 asrSamarqandxalqko'zgoloni », « Eregalari » asarlari bilan ma'lum darajada yutuqlarga erishdilar.

2bob. 6. P. Benkov ijodida O'zbekiston me'moriy manzarasi. Manzara nafis rassomp. Benkov ijodiga bir nazar.

Aslida bu rassomning o'zbek yurtiga keliishi kaminani baxt deb atasaxam bo'ladi.

Rassom 1898 – 1899 yillarda Qozon shaxridagi badiiy bilimyurtida ta'lim olgan. 1901 yil badiiy akademiya kirib u yerda Kardovskiy qo'lida ta'lim olgan va shu yerda «Davlat dumasining kengashi» asariniyaratgan. Uteatrni sevganvatez-tezteatrga borib turgan.

Shu bois teatr rassomi sifatida malakasini oshirib ko'pgina teatr dekorastiyalarini bajargan. «Sirlioyna» , «Ruslan va Lyudmila» saxnaasarlari dekorastiyalarini bajarib P. Benkov tanilib qolgan. Ikkichibor chetelga Parijga sayoxat uyushtirgan.



1909-10 yillarda o'zining birinchi bor badiiy ko'rgazmasini tashkil etgan. 1920 yilda «Milliykiyimlitatarkiz», «Teatrtatarpessasi», «Zangorishol», «ToxirvaZuxra», «Xindkizi», «Oliyabanu» kabi spektakllarni saxnalashtirgan. Rassom 1929 yilda Turkistonga kirib kelgan Samarqanddagi madrasaga joylashib olib shu yerda mavzuli kartinalar yaratishga kirishdi. Rassomning dastlabki kartinalari «Piyola ushlagan tojik», «Kuxna Buxoro», «Ko'cha manzarasi», «Buxorodagi yopiq bozor», «Labixavo'z» nomli asarlar bilan o'zbek tasviriy san'atiga kirib keldi.

Bu rassom haqida juda ko'pilik so'zlarni aytish mumkin zero u yozgan xar bir polotnonafakat me'moriy inshootgina bo'lib qolmay balki o'sha davr maishiy turmush tarzi tarixiy sharoit nuqtai nazaridan ko'zatib aniq baxo berilgan edi. Ayniqsa, kizgin suxbat, Gavjum kuchalar o'zbekning milliy urfodatlari uning eng mazmunli badiiy maqsadli g'oyalaridan biri edi. Aynan shu mavzularni o'zida mujassam etgan kartinalar «Uba», «Gijduvonkulollari» Buxoroda yozilgan bo'lsa «Xorazmchigiri», «Sabzavotbozori», «Xivalikkiz» esaXorazmda, «Yigitcha», «O'zbekyigiti», «Bibixonim», «SamarqandvaRuxobod» asarlari Samarqand shaxrida o'z isbotini topdi.

«Nega, biz u xaqada kuyunibyo'zayapmiz»-debuylashimiz mumkin, chunki aynan men yozayotgan asarlarda rassom PavelBenkov o'tayorqin ranglarda tarixiy shaxarlarimiz qiyofasini, jamolini, tabiatiniilk boryoritgan shaxs sifatida namoyon bo'lgan buyuk rassomdir shu bois xam biz uni chizgan rasmlaridan ilxomlanib kadrlaymiz, xurmat qilamiz

O'.Tansiqboyev xam O'zbekiston manzara janrida uchmasiz qoldirgan musavir sifatida tan olingan. Bu rassom repertuaridagi mavzular tabiat kuyni datanlangan va «Tabiatkuychisi» degan sharaflinomga sazovor bo'lgan. O'. Tansiqboyev va sarlarida P.Benkovniki kabi me'moriy inshootlar deyarli uchramaydi lekin Shirintuyg'u, takrorlanmas tabiiy go'zallik tasvirlangan obektga xos tarzda o'zaksini topib olgan. Rassomning manzaralari o'zining aktualligi, badiiyligiuningdekorativxususiyatlariniyuzagachikarishi, lirikechimga ega bulishi

bilan xarakterli eng muhimi O'zbekiston rang tasvirida rus rassomlari I. Shishkin, A. Savrasov, I. Levitanlar kabi o'z maktabini yaratdi.

Ko'pgina tarixiy dalillar Buxoro zaminida Ismoil AL-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Farobiy kabi donishmandlar dunyoga kelganligi uning faxr deb e'tirof etiladi. 1929- yilda N. Benkov Samarqandga kuchi b keldi. Aslida teatr dekorati bo'lgan bu rassom O'zbekistonda realistik rangtasvir janrini shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uning asarlarida O'zbekistonning Samarqand, Xiva, Buxoro kabi shaxarlari qiyofasi o'ziga xos tabiati, milliy madaniyati kishilarning o'ziga xos o'zgacha xususiyatlaridagi go'zalliklari yorqin ranglarda ishonarli tarzda gavdalandi.

#### **1.4 Yurtimizdagi rangtasvirning qisqacha rivojlanish tarixi**

**Rangtasvir** – tasviriy san'at turlaridan biri bo'lib, unda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yo'zasiga bo'yoqlar orqali tushirilgan san'at asarlari kiradi.

Rangtasvir hayotni jonli, ya'ni borliqni to'liq va ishonarli tarzda tasvirlanishni bildiradi.

Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko'ra mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr-dekoratsiyasi, bezakli naqqoshlik kabi turlarga bo'linadi.

Ularning har bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazning bajarilish vazifasiga ko'ra o'z xususiyatiga bog'liq holda farqlanadi. Rassomlar asarni tasviriy va plastik vositalar (qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko'rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

Rangtasvir inson hissiyotining murakkab hayotini ko'rsatishga, tabiatdagi nozik o'zgarishlarni tasvirlashga, boqiy falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni yaratishga qodir.

Rangtasvir tarixi ibtidoiy odamlarning g'orlardagi devor tasvirlaridan boshlanadi.

Uning rivojlanish taraqqiyotida juda katta ma'naviy boyliklar yig'ilgan. O'rta Osiyodan topilgan devoriy rangtasvirlar miloddan avvalgi VII-V asrlarga oid bo'lib, bir vaqtning o'zida o'sha davr hayoti tasviri aks etgan rangtasvir namunasi ham muqaddas milliy iftixor hisoblanadi. Ranglar shartli va dekorativ tarzda bezatilgan. Uyg'onish davriga kelib, inson rangtasvir asarlarida asosiy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Madonnalarni tasvirlash barkamollikning yuksak ideali hisoblangan. Rassomlar haqqoniy kartinalar yaratishni boshladilar. Rangtasvir texnikasi doim takomillashib bordi. Rangtasvirchilarni rang-barang sujetlar qiziqтира boshladi. Buning natijasida XVII asrda yangi janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Eng qadimiy janrlardan biri bu portret hisoblangan. Mum rangtasvir texnikasida bajarilgan ajoyib portretlar Fayyum qishloq joyidan topilgan. Ular Qadimgi Misrda eramizdan oldin I-III asrlarda yaratilgan. Fayyum portretlari aniq hayotiy obrazliligi, shaklning hajmli yorug'-soyali tasvirlanishi bilan farqlidir.

F. Rokotov, D. Levitskiy, V. Borovikovskiy, N.Feshin, V. Serov va boshqalar ajoyib rus portretchilari hisoblangan. Buyumlarning o'ziga xos portretlarini,

ularning tinch hayotini rassomlar natyurmort orqali tasvirlashgan. Bu janr XVII asrda paydo bo'ldi. Taniqli golland natyurmortchilarining ijodiy asarlarini ko'zgatganda ularning naqadar jonli va jozibali tasvirlanishiga tasannolar aytasan.

P. Konchalovskiy, I. Mashkov, K. Petrov-Vodkin, M. Saryan va boshqalar ham natyurmort ustalari bo'lgan. Bu o'rinda O'zbekistonda ham portret va natyurmort janrlari bo'yicha rassom-ustalarni eslash joizdir. Bular: S.Kolibanov, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, Y.Yelizarov va R.Ahmedovdir.

Kartinalardagi tabiat manzaralari tasviri XVII asrda Gollandiyada yaratila boshlandi. Manzara janri nafaqat yilning turli iqlim sharoiti, quyoshli va tunli yorug'ligini, balki turli vaqtdagi tabiatning go'zalligi va uning rang-barangligini aks



F.Vasilyev. Ho'l ko'kalamzor. O'.Tansiqboyev. Oqshom pallasi.

ettiradi. K. Koro, Van Gog, P. Sezannlarning yaratgan manzaralarini bir-biriga taqqoslab ko'rsangiz, ularning har birida haqiqiy tabiatni ko'rasiz, ya'ni har bir ijodkor o'zining his-tuyg'usi bilan obrazlarni jonli yaratadi. Musavvir doim naturani ko'chirmaydi, balki asarda o'zining ichki kayfiyatini ranglar vositasida tasvirlaydi. Rus tabiatining qo'shiqchisi I. Levitan hisoblansa, O'zbekiston tabiatining ijrochisi O'. Tansiqboyevdir. Ajoyib rus manzarachi rassomlari F. Vasilyev, V.Polenov, A. Savrasov, I. Shishkin va boshqalar bilan bir qatorda, I. Haydarov, R.Ahmedov, A.Nur, A.Mo'minov, G'.Abdurahmanovlar ham betakror asarlar yarata oldilar.

Rassom faqat dengiz manzaralarini tasvirlasa, ularni marinachi rassomlar deb atashadi, u ham alohida mustaqil janr hisoblanadi. I. Ayvazovskiy yaratgan kartinalar shular jumlasidandir.

Ayrim rassomlar o'zining ijodini hayvon va qushlarning tasviriga bag'ishlab, animalistik janrdagi asarlarni yaratadi. Masalan, A.Laptev, V.Vatagin, E.Charushinlarni ko'rsatish mumkin.

O'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, yashab ijod etgan shaxslar rassomlarni tarixiy janrda kartina yaratishga undaydi – bu esa, ko'p figurali kompozitsiya, haqiqiy rang yechimiga ega bo'lgan asarni talab qiladi. V.Surikov, S.Abdullayev, M.Nabiyev va boshqalar ijodi bevosita tarixiy janrga bog'liqdir.

Insonlarning kundalik turmushda bajarayotgan ishlarining kartinalarda tasvirlanishi maishiy janr asari hisoblanadi. Bu mavzuda A.Venetsianov, P.Fedotov, V.Perov, G.Myasoyedov, B.Kustodiyev, shuningdek, Z.Inog'omov, R.Ahmedov, G'.Abdurahmanov, A.Mirzayev, A.Abdullayev va boshqalar samarali ijod qilganlar.

Rassom rangni turlicha qabul qilish mumkin, rang bilan fikrlash va loyihalashi ham mumkin. Rangshunoslik asoslari, «rang» bilan «bo'yoq» tushunchalarining farqini o'rganish lozim. Rangtasvirda kerak bo'lgan rangni, palitrada bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Rassom bo'yoqlardan ranglar majmuasini hosil qilib asar yaratadi. Birgina «rang» so'zining o'zi bitta bo'lsa ham, rangtasvir jarayonining ko'pgina sifatini belgilaydi, shuning uchun rang san'at turining asosi hisoblanadi.

Tasavvur qiling, barcha ranglar atrof hayotimizdan yo'qolib ketsa, unda biz faqat oqimtir kul rangni ko'ramiz. Qandaydir ma'yus, bir xillik va odatlanmagan surat hosil bo'ladi. Demak, rang bizning hayotimizda muhim o'rinni egallaydi.

Har bir buyum o'z rangiga ega. Ayrim obyektlarni rang orqali idrok etamiz. Masalan, uchta dumaloq shakl va o'lchami bo'yicha ham bir xil obyektни olamiz. Ularni tegishli ranglarga bo'yab, xohlasangiz zarg'aldoq apelsin, qizil pomidor yoki yashil olmaga aylantirish mumkin.

Rang orqali mevalarning pishganini yoki ko'zning kirib kelishini bilish mumkin, chunki yashil rangdagi daraxtlar sarg'ayib, qizaradi. Keyin havo olisdagi o'rmon yoki tog'larni turlicha rangda ko'rsatadi, u esa kenglikda turgan joyni aniqlashda yordam beradi. Kunning turli vaqtida yorug'lik rangiga bog'liq holda osmon, yer va suvning rangdorligi o'zgaradi.

Tong yorishgan yoki qosh qoraygan paytda yashil rang ancha yorqin tuyuladi. Qorong'i tushishi bilan qizil, siyoh ranglar to'qlashadi, yashil, ko'k ranglar esa ocharadi.

Dunyoning barcha go'zalligini, shakl va material, kenglik va yorug'ligini ranglarning turli-tumanligi orqali ko'ramiz.

Har doim yilning turli fasllaridagi jonli tabiatning rang-barangligi bizlarni o'zgacha quvontiradi. Har bir yil fasllariga taa'lluqli bo'yoqlarning aralashgan palitrasi mavjud. Sizlar o'z tanlovingizni bahorgi nozik va yozgi tiniq bo'yoqlari, yorqin ko'zgi va qishki xiralashgan tuslariga qaratishingiz mumkin. Albatta, ijodiy ishlarda ranglarning monandlik prinsiplariga asoslaning, o'shanda bajarilgan suratlar haqiqatdan ham jozibali chiqadi.



Yorug'lik rangiga bog'liq holda osmon, yer va suv rangdorligining o'zgarishi.

**Yoz.** Yozgi bo'yoqlar tiniq, ravshan va jozibalidir. Palitrasi o'tsimon yashil, qizil(alvon), malina rangi, ko'k, to'q-sariq va zarg'aldoq ranglardan iborat. Har bir lokal ranglarga turli murakkab nozik rang turlaridan jozibali gammasi to'ziladi.



### Yil fasllari.

**Bahor.** Bahor tabiati nozik, juda ham yorqin bo‘lmagan ranglardan hosil bo‘ladi. Shuning uchun bahorgi palitra yumshoq pastel tuslaridan: kremli, pushti rang, o‘rik rangi, havorang, och-sariq va oxradan iborat bo‘ladi. Kontrast uchun – yashil o‘t rangi, ko‘knori-qizil va xiralashgan jigarranglar qatnashadi.

**Ko‘z.** Ko‘zgi palitrani iliq, asosiy tusli bo‘yoqlar tashkil qiladi, go‘yoki yorug‘lik nurini tarqatayotgandek. Ko‘k va zarg‘aldoq, sariq va siyohrang, qizil va sariq kontrast ranglardan to‘zilgan kompozitsiya, shuningdek, to‘q qizil – jigarrang, to‘q qizil va siyohranglar och oxra tuslari bilan aralashmasida ham yorqin, ko‘rinarli va samarali bo‘ladi. Asosiy ranglar gammasini ignabargning yashil rangi to‘ldirishi mumkin.

**Qish.** Qish palitrasi uchun och havo rang, siyohrang, mo‘zning yaltiragan ko‘kimsiz tusi, oq va qora ranglarning kontrastidagi ranglar tashkil etadi. Odatda, kompozitsiyalar toza, ochiq-oydin, aniq, lo‘nda-ixcham bo‘ladi. Qishning romantik ko‘rinishlari neytral, nozik kulranglar bilan muvaffaqiyatli birikuv orqali noaniq ranglarni yaratishga yordam beradi.

Yaponiyada, masalan, «Kabuki ranglari» – qarag‘ay ignasining to‘q yashil rangi, tog‘larning jigarrangi, sakuraning pushti rangi hisoblanadi – G‘arb ranglari bilan solishtirganda yorqin emasdek tuyuladi. Biroq bir-biri bilan aralashtirilganda Yaponiyaning o‘ziga xos boy jozibali ranglari hosil bo‘ladi, g‘arbning standartiga ko‘ra bu ranglar hamohang emas (uyg‘unlashmaydi).

Ranglar insonni nafaqat xursand qiladi, ayrim holda g‘azablantirishi (achchiqlanish), tashvish solishi (vahima), qo‘msashi (sog‘inish) yoki xafalik (qayg‘u) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, rang emotsional ta’sir etadi.

Ayrim ranglar asab sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, g‘azablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglarga yashil, havorang, ko‘k kirsa, qirmizi, qizil, zarg‘aldoq, sariq ranglar to‘lqinlantiruvchi hisoblanadi.

Odamlar qadimdan ranglarga alohida ahamiyat berishgan. O‘rta asrlarda qirmizi ranglar – kuch, qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard(havorang) rang esa – go‘zallik, ulug‘vorlik, muloyimlikni; qora-qizil rang bilan aralashmasi – o‘lim va h.k.ni bildirgan.

Marosim va to‘y-shodiyonalikdagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang – tantanavorlik, ulug‘vorlikni; qora esa – kulfat, o‘lim, qayg‘uni; oq esa – tozalik, aybsizlikni; yashil esa – umidvorlikni va shu kabilarni anglatgan. Qizig‘i shundaki, turli xalqlarda bir xil rang turli ramziy ahamiyatga egadir. Masalan, Xitoyda va ayrim Osiyo va Afrika mamlakatlarida oq rang motam rangi hisoblanadi. Slavyan xalqlari esa o‘liklarga oq kiyim kiydirishgan.

## **II BOB.**

### **2.1. Manzara bajarishda moy bo‘yoq texnologiyasi**

Kompozitsiyani moy bo‘yoqda tasvirlash jarayonini bajarishga kirishishdan oldin uning ishlash texnika va texnologiyasini, gruntlash, podramnik yasash,



ranglar xususiyatini o`rganish kerak bo`ladi. Moy bo`yoqda ishni bajarish uchun kerak bo`ladigan materiallar va ishlash texnikasi bilan tanishib chikamiz.

Tanlangan kompozitsiyani moy buyokda ishlash asosida xolst, karton, fanera kabi materiallar kerak bo`ladi. Tasvir yuqoridagi materiallarga ishlanadi. Ushbu tasvirlar chizishdan oldin yukoridagi materiallar maxsus grunt bilan koplanadi. Grunt asos bilan rang urtasidagi aloka vositasini bajaradi. Bir tomonda u bo`lsa xolstga rangni erkin qo`yish mumkin, ikkinchi tomondan u rangni toyib ketishga yo`l kuymaydi.

Xolst bu maxsus mato bo`lib moy rang tasviriga mo`ljallangan. Xolst o`zi tayyor gruntlangan bo`ladi. Lekin ko`pgina rassomlar grunt ustidan yana bir bor elimli grunt ustidan yana bir bor elimli grunt surkashni ma`kul ko`radilar.

Podramnik qurigan yog`ochdan tayyorlanadi va unga xolst tortiladi. Xolst tortishda aloxida e`tiborni karatish kerak. Chunki u salg`i bo`lib qolmasligi kerak. Xolst tortilgandan so`ng jelatin yoki baliq yelimi bilan prokleyka qilinadi.

Moy bo`yoqda ishlash uchun uni erishishda razbavitel' ishlatiladi. Suyultirgich dommar, mastichniy lak holida hamda zig`ir yog`i spipidar ham bo`lishi mumkin.

Moy bo`yoqda ishlash texnikasini egallash uchun eng avvalo kerakli materiallarni bilish zarur.

Moy bo`yoq rang tasviri uchun qalin mato ishlatiladi. Bu uchun mato oldin yuvilmagan bo`lishi kerak.

Ko`p hollarda talabalar ishlatilgan xolstni bo`yab yana ishlatadilar. Biro? bu xolstni ramkaga tortish ?iyin. Mato tanlaganda u to`qilgandan so`ng donadorlik hosil qilishi bo`yoqni qalin qilib surtganda ham saqlaydi. Agar ish bir metrgacha bo`lsa mayda donador xolstlardan undan katta bo`lsa esa katta donador xolstlardan foydalanish tavsiya etiladi. Matoni tortish uchun maxsus

podramniklar kerak bo`ladi. Agar ramka bir metr **bo`lsa** albatta o`rtasidan ko`shimcha reyka berish kerak. Reykalar bir biriga qulf kalit hamda kiritiladi.

Xolst podramnikdan ham o`zunligi ham enidan 2,3 sm katta bo`lishi lozim. Xolstni tortishda eng avvalo o`rtalaridan engil mixlanadi so`ng o`rtadan boshlab burchakka qarab ketiladi. Yuvilmagan matoni ramkaga juda qattiq tortish tavsiya etilmaydi, buning sababi yo`za gruppalanganda nam ta`sirida qattiq tortiladi va o`zilish bo`lishi mumkin.

Xolstni gruppalash. Xolstni gruntlash bir necha qatlamda bajariladi. Eng avvalo u prokleyka qilinadi, ya`ni yo`za texnik jelatin issiq suvda yaxshi eriydi. Baliq elimi tayyorlash uchun bir sutka davomida suvda saqlanadi. So`ng suv qo`shilgan holda isitishadi. Bu uchun ikkita katta kichik kastyul ichiga elim solinadi. Kichik kastyul ichiga elim katta kastyulga suv solib joylashtiriladi katta idishdagi suv elimini kuyishdan sakladi va elimni kaynatish darajasiga olib bormaslik kerak.

Proleyka uchun tinik tUSDagi duradgorlik elimi ishlatiladi. Kazeynli grup tayyorlash uchun yogsiz so`zmani olib unga suv va noshatir spioti qo`shiladi.

Xosil bo`lgan massa suvi sirtkitilib qurilidadi. Agar kerak bo`lsa unga suv kushib erilishi mumkin. Bunda ham xolst yupka katlamda koplanadi. E`zaga katta mo`ykalam bilan bir tekisda eritma surtiladi. yelim eritmasi suritilgandan so`ng yuzaga bir necha marta yupqa qatlamda gruppalanadi.

Gruntlar yogli, elimli va emul'siyali bo`ladi. Yogli grunt bu oq moy bo`yoq bo`lib xisoblanadi. Gruntlangan yo`za yaxshi ko`rilishi zarur. Aks xolda chizilgan tasvirdagi bo`yoqlar to`qilib ketishi mumkin. Emul'siyali grunt bu bo`r va yelim aralashmasidir. Bunda emul'siya tayyorlash uchun zigir yogi, yelim va ruxli oq rang poroshogi yoki bo`r qo`shiladi. yelimli grunt bu bo`r yoki oq rang poroshogi erishilgan yelimga aralashtiriladi. Bunda ham yuzaga aralashma bir necha marta yupqa qilib surtiladi. Gruntlashdan ko`zlangan maqsad katta o`lchamdagi xolstda chizilgan rasmlanni bir joydan ikkinchisiga ko`chirganda uni ramkadan

yechib olinadi va rulon tarzida o'raladi. Yengil yelim surilishi va egli grunt kartinani o'zoq saqlashnishiga imkon yaratadi. Oldingi davr musavvirlari rang tasvir boshlashdan oldin yo'zani bir marta yengil yelim aralashmasi surtganlar ba'zilari esa sarimsoq eki piyozni gruntlangan yo'zasiga surtib chiqqanlar bu esa xolstga rangni yaxshi yuritishga yordam beradi. Bo'yoqlarni eritish uchun oldingi davr rassomlari zig'ir va engik yog'larini ishlatganlar, Yuzaga esa ko'p xollarda lak surtganlar bu ishga yaltiroqlik bag'ishlagan va chaplardan saqlagan. Moy bo'yoqda ishlash uchun kattik junli mo'yqalamlar ishlatiladi. Keng yo'zalarini ishlash uchun katta mo'yqalamlar, detallarni ishlash uchun 2-7 o'lchamdagi mo'yqalamlar ishlatiladi. Mo'yqalamlar ishlatilib bo'lingandan so'ng sovunli iliq suvda yuviladi va uch qismga kog'oz o'ralib, bankaga solib ko'yiladi. Metall kurakcha bilan palitrada qotgan bo'yoqlar tozalanadi, mato yo'zasiga xato quyilgan bo'yoqlar olinadi hamda tasvirlarni to'lik ishlash ham mumkin.

### ***Manzara tarixi***

Manzara - fransto'zcha «peyzaj» so'zidan olingan bo'lib «tabiat» degan ma'noni anglatadi, tasviriy san'atda esa tabiatning tabiiy yoki hayoliy ko'rinishlarini ifodalovchi janr hisoblanadi.

Ibtidoiy odam neolit asridayoq, odamni o'rab turuvchi tabiatni elementlarini qoyadagi tasvirlarda berganlar. Masalan, Jazoirdagi qadimgi suratlarda ov manzaralari, podalarni o'tishi va boshqa daraxt, tosh, ko'l, suv kabilar sxematik tarzida ifoda etilgan.

Manzara motivlarini keng qo'llanilganligini Qadimgi Sharq va Kritdagi fir'avnlarni ovi yoki yovvoyi hayvonlar tasvirida ko'ramiz. Bu tasvirlar eramizdan avvalgi XX, XV asrlarga taaluqlidir. Bu haqda yuqorida misollar keltirib o'tdik.

O'rta asrlar Evropa san'ati va Qadimgi rus ikona tasvirlarida tabiat ancha sxematik tarzda berilgan.

Eramizning XVI-XVII asrlarigacha manzara turli kartinalarga yordamchi detal sifatida yoki fon vazifasini o'tab kelgan. Masalan, Leonardo da Vinching mashhur «Mona Liza» portretida manzara mazmunga mos ravishda alohida ahamiyat kasb etadi

Manzara alohida janr sifatida O'rta asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan. Xitoy rassomlarning manzaralari juda shoirona bo'lib, ular tomoshabinga cheksiz shavqu- zavq beradi, to'lqinlantiradi, olamni abadiyligi haqida tasavvur beradi, tulqinlantiradi. Rassom X.V.Dun Yuanning «Daryo manzarasi» qora tush bilan ipakli matoga ishlangan. Borliqning cheki yo'q, suv yo'zi keng, ufq gorizontda tuman tutunlari orasida g'oyib bo'lgan. Keyinchalik Xitoy rangtasviri ta'sirida Yapon manzaralari ham paydo bo'lgan.

Evropa san'atida Uyg'onish davriga kelibgina manzaraning mustaqil janr sifatida shakllantirish uchun urinishlarni sezish mumkin. Rassomlar naturani o'rganish bilan kartinalarda kenglik (fazo) ni ko'rishga, chiziqli va havo perspektivasi prinstiplariga asoslanib, tabiat insonlar yashaydigan real vosita (muhit)-makon sifatida talqin etiladi.

XV asrning birinchi yarmida shved rassomi K.Vistaning «Mo''jizaviy ov» manzarasida (1444., Tarixiy va san'at mo'zeyi. Jeneva) konkret borliq, ya'ni Jeneva ko'li qirg'oqlari tasvirlanadi.

Niderland I.Patinir, nemis A.Dyurer va A.Aldorferlar-ning o'lchamlari katta bo'lmagan grafik va rangtasvir asarlarida tabiat asosiy o'rinda ko'rsatiladi.

Bu davrda G'arbiy Uyg'onish davri san'ati ustalari italyanlar A.Mantene, Pero dela Franchesko, Djordjone, Leonardo da Vinchi, Tistianlar tomonidan tabiat obrazini ifoda etishga turlicha urinishlar bo'lgan. Unda tabiat inson bilan hamfikir, garmonik bog'langan bo'lib, arxitekturaviy muhit asosiy o'rinda turadi.

Niderland ustalari Yan Van Eyk, Xyu Van Der Gus va nemis A.Dyurer, M.Nitxardt, A. Altdorfer, L. Kranax (kattasi), ijodlarida yovvoyi tabiat obrazlari o'ziga xos ravishda talqin etiladi.

XVI arda P.Breygel (kattasi) olamni keng ko'rish, xalq xayotini spetifik namoyon bo'lishi va insonni tabiatdan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi. Uning «Yil fasllari», «Podaning qaytishi» (1565, Vena san'at mo'zeyi) asarlari shular jumlasidandir.

XVII asrda klassistizm san'atida ideal manzaralar ishlash prinstipi paydo bo'ladi, qaysiki asosiy o'rinda tabiat obrazi mohirona tasvirlanadi va ular o'zida olamning to'zilishi qonuniyatlarini ifoda etadi.

Fransto'z rassomi N. Pussen ijodida ideal manzara «qaxramon» sifatida ulug'lanadi. Bunda antik mifologiya asarlaridan keng foydalanilgan. Masalan, «Gerkules va Kakusning yakkama-yakka jangi» (1649, DTSM) asarini misol keltirish mumkin. K. Lorrenning kartinalarida esa, obrazli afsonaviy xarakter asosiy o'rinni egalladi, uning «Evropaning o'g'irlanishi» asari buning misolidir.

Barokko rassomlari esa tabiatning stixiyali qudratini kuyladilar. Inson bu tabiat ichra yashaydi, tabiat bilan yaqinterer turadi, tabiatning o'zi esa o'z balo ofatlari bilan kurashda bo'ladi. Shunday kartinalarga P.P.Rubensni «Tosh tashuvchilar» (1620, D.E. Leningrad), Velaskesning naturadan ishlangan plener elementlari tasvirlangan manzaralarini kiritish mumkin.

Shu o'rinda, akademik rassom-O'rol Tansiqboevni serquyosh o'lkamiz tabiatini o'tkir mo'yqalamiga tayanib san'atkorona tasvirlashi bilan tasviriy san'at rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk rassom sifatida keltirish o'rinli. Uning asarlarida keng fazoning juda ustalik bilan tasvirlanishi, bu fazo bag'ridagi tabiatning nozik va nafis sirlari o'ta mahorat bilan aks ettirilganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'rinda ayniqsa, «Issiqko'lda kech», «Taxiatosh» (1951), «Qoraqum suv ombori» (1957) kabi asarlari diqqatga sazovordir. Uning buyuk san'atkor bo'lib etishishining sababi, bahorga oshufta bo'lish; ona-tabiatga mehr qo'yish,

biror bir daqiqani tabiat bag'risiz o'tkazmaslikka harakat qilish, bahor kezlarida tabiat bag'riga sho'ng'ib ketish, balki shu fasl xavosi bilan qorishib ketish bilan asarlarda tabiatning hech kim eshitmagan jarangli va sehrli kuy qo'shiqlarini tinglash bo'ldi. U 1960-yillarda ham o'nlab shunday rang-barang asarlar yaratdiki, ular tasviriy san'at tarixiga durdona namunalar bo'lib kirdi. «Qayraqum GESi tongi» (1957), «O'zbekistonda mart» (1958), «Ala-Tov» (1960), «Angrendagi tog' yo'li» (1962), «Angren daryosi» (1963), «Tungi tong qishlog'i» (1962), «Kech» (1971) va boshqa asarlari kishini tabiat manzarasiga sayr qildiradi. 1972 yilda yaratgan «Mening qushig'im» polotnosi esa alohida dovrug' topdi.

O'.Tansiqboev serquyosh o'lkamizni, rango-rang tabiatini ana shu yo'sinda mohirona tasvirladi. «Mening qo'shig'im» kartinasi musavvir umrining so'nggi yillarida yaratilgan. Shuning uchun ham ushbu ajoyib manzarada rassomning butun ijodiy mehnati, xayot yo'li mujassamlashgandek ko'rinadi. Asarning oldingi planida tog' toshlari bahor tabiatining gullarga burkangan holda jozibali qilib tasvirlangan. Bir qarashda bu oddiy ko'rinsa-da baxaybat va nihoyatda ulkan tog'lar bag'ridagi toshlar tarix sirlarini hikoya qilayotgandek tuyuladi. Rassom o'zining bu asarida tabiatning nafis va nozik go'zalliklarini chizadi. Qo'shiqchining ovozi-yu, bastakorning kuyi-barcha barchasini ishtirok ettirayotgandek ko'rinadi tasvirlarda. Go'yo ona tabiat bag'riga kirib, o'z ovozi bilan kuylagan yoqimli qo'shig'ini «Mening qo'shig'im» deb ataydi.

Manzara janrining yana bir ilg'or vakili N.G.Karaxan hisoblanib, u o'lkamiz tabiatida doimo sayr qilar va har bir fasilning o'ziga xos go'zalliklarini serjilo ranglar bilan tasvirlab berishga intilar edi. 1930 yillarda ishlagan «Qizlar xovo'z bo'yida», «Uch mashshoq», «Xovlida o'zum o'zish», «To'g'on qurilishi», «Bahor», 1940 yillarda yaratgan «Hirmonchi qiz», «Ona diyor», «Nanay yo'li» kabi manzaralari uning o'ziga xos tasviriy san'at ustasi ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, 1957 yilda ishlagan «Oltin ko'z» asari tabiatimizga xos go'zallikni o'ta mahorat bilan ko'rsata olganligining namunasi. N.Qo'ziboev, R.Timurov,

I.Xaydarov, A.Mirsoatov, A.Mo'minov, A.Yunusov va boshqa rassomlar ham tabiatni madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib berdilar.

Ayniqsa, o'zbekona «Hovli» manzaralari alohida diqqatga sazovordir.

Inson tabiat manzarasini juda qadim zamonlardan tasvirlay boshlagan. Manzara elementlarini neolit davridan qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa qadimgi Misr va qadimgi Gretsiya san'atida uchratish mumkin.

O`rta asrlarda makbaralar, saroylar, boylarning uylari manzara motivlari bilan bezatilgan. Manzaralar ko`pincha ikona va miniatyuralarda masofani shartli ko`rsatish uchun xizmat qilgan.

Mustaqil janr sifatida manzara XVII asrda shakllangan. Uni golland rangtasvirchilari yaratishgan. XVI asrdayoq rassomlar naturani urgana boshlashgan. (Niderlandiyalik P.Breygel). XVII-XVIII asrlarda manzara janri gullab-yashnadi. (Flandriyalik P.Rubens, Gollandiyadan Rembrandt va I.Reysdal, Frantsiyadan N.Pusin va K.Lorin). Havo perspektivasi yaratildi. XIX asrga kelib manzara janri ustalarining ijodini (Frantsiyadan K.Koro, Rossiyadan A.A. Ivanov, A.Savrasov, F.Vasilev, I.Shishkin, I.Levitan, V.Serov) Impressionistlar (Frantsiyadan E.Mane, K.Mone, O.Renuar, Rossiyadan K.Korovin, I.Grabar) davom ettirdilar va yorug`lik, havo muhitini o`zgaruvchanligi, tabiatning turli holatlarini va bo`yoq jilvalarining boyligini bo`yoqlar yordamida berish mumkinligini kashf qildilar.

XIX asr oxiri - XX asrda yirik rassomlar (Frantsiyadan P.Sezann, P.Gogen, Van Gog, A.Matiss, Rossiyadan A.Kuindji, N.Rerix, N. Крѣмов, Armanistondan M. Saren) manzara rangtasvirining emotsional, assotsiativ sifatlarini kengaytirdilar. Shuningdek manzara an'analarini A.Рылов, K.Yuon, A.Ostroumova- Lebedeva, A.Kuprin, P.Konchalovskiy va boshqalar davom ettirdilar.

Mustaqil janr sifatida manzara janri Xitoyda VI asrlardayoq kelib chikkan. Xitoy rassomlarining manzara asarlari tush bilan ipak matoga chizilgan. U juda chuqur falsafiy mazmunga ega bo`lib, xuddi cheksiz masofa, abadiy yangilanib

turuvchi tabiatni ko`rsatayotgandek tuyuladi. Rasmlarda tog` panoramasi, suvli ko`l va daryolar tuman tasvirlangan.

Manzaralarda odamlar komatlari va yuksak ma'naviy sifatlarni ko`klarga ko`taruvchi simvolik motivlar (tog` sosnasi, bambuk, yovvoyi olxo`ri) tasvirlangan. Xitoy rangtasviri asosida yapon manzarasi chuqur grafik tasvirlarga ega. (K. Xokusay).

Manzara janri faqatgina tabiatning turli fasllardagi turli-tumanligi va go`zalligi, uning quyosh va oy yorug`ligidagi ko`rinishini tasvirlabgina qolmay, balki hissiyot va kayfiyatni tasvirlaydi. K.Koro, Van Gog, P.Sezann manzaralarida real tabiat tasvirlangani bilan, ularda eng asosiysi rassomning shaxsiy hissiyotlari berilgan bo`ladi. Rassom faqatgina naturani ko`chirmaydi, balki o`zining ichki holatini rangtasvirda beradi, shuning uchun har bir rassomning o`zi sevgan rang munosabatlari, priyomlari mavjuddir.

## **2.2. Kartina bajarishda asosiy rang munosabatlarni**

### **idroq qilish va tasvirlash**

Manzaraning rangtasviri – rangtasvir dasturining kerakli bo`limi bo`lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir.



Tabiat benihoya jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviriy san'atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go'zal manzara asarlar o'zining nafosatli ta'siri bilan insonni ma'naviy boyitishga erishadi.

Ona tabiat qo'ynida bo'lish ijodiy fikrlar tug'ilishi va ruhlanishni o'zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o'sha muhitni chuqur o'rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma'lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli etkazishga o'rgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisidagi ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yorug'likni hosil qiluvchi yorug'likni ko'pligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara ob'ektlarini kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan almashuvi, yil fasli va ob - havoni turli holati - buning hammasi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi – tabiatning ma'lum holatini, yoritilganligini havoiiy muhit ta'sirini ma'noli makonni etkazishdir. Manzara tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash metodi, umumiy tus va rang holatini to'g'ri topish yordamida erishadi. Manzara ob'ektlari va narsalarni rang, och-to'qligi va to'yinganligi bo'yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini belgilash – bular etyudning rangli munosabatlarini to'g'ri ifodalashda asos qilib olinadi.

Manzara etyudini mahoratli tasvirlash - demak uning rang munosabatlarini naturada ko'rinayotganday o'xshatib bajarishdir. Bunday talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos bo'lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani xaqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to'qligi va to'yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo'yoqlar doirasiga o'tkazadi, so'ngra tomoshabin etyuddagi ko'rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o'rnatilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o'zgaruvchidir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug'lik nurlarini tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) qarab o'zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilish ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari ma'lum tusli va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitraning och va yorqin bo'yoqlari (quyoshli kun), boshqasida esa kam to'yingan quyuq, qoramtir bo'yoqlar qo'llaniladi (bulutli kun). Shunday qilib etyud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiy tusni hisobga olish kerak. Bunga avvalom bor barcha narsalarni yorqinligi, ranglarni to'yinganligi bo'ysunishi zarur. Shuning uchun etyudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani echish zarur: naturaning etyudida ko'proq yorqin, to'q va to'yingan dog'lar rang va yorug'lik kuchi jihatdan qanday bo'ladi. Shular atrofida etyudning barcha narsalari va ob'ektlari rang munosabatlarida qurilgan bo'lishi kerak.

Ko'zning moslashuvi deb ataluvchi (yorug'likka ko'zning sezuvchanligini ko'tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib to'qroq bo'lib ko'rinadi.

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara ob'ektlari va narsalarni yaxlit ko'rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko'rinishni yorqin ranglarda keyingi ko'rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko'rish orqali manzaraning

perspektiv o'lchamlarini, ularning turli ko'rinishdagi rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo'yoqlar, kechqurin esa sariq zarg'aldoq, bulutli kunda esa – neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O'rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-xavorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarini mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak.

Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta'sir kuchi shunda namoyon bo'ladiki, kartinadagi narsalar, obekt yoki voqea malum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa. «Kim men uchun haqiqiy kolorist hisoblanadi?» - deb D.Didro o'zi javob beradi: «Tabiat ranglarini to'g'ri yoritilganligini tasvirlay olib kartinada uyg'unlikka erisha olgan rassomgina».

Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko'pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki etiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko'pincha umuman noto'g'ri «Munosabatlar» tushunchasi deyilganda rang turlarini mutanosibsizligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarini farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko'p asrlar oldin narsalarning ranglari muxit bilan yoritilish sharoitlari bilan, o'zgarishlarini bilishgan. Uyg'onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va havoiiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko'rinishida muxitni o'rni (Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, D.Konstebel, D.Reynolds) to'laqonli bayon etilgan. Shunday bo'lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Ma'lum bo'lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko'lamini saqlagan holda munosabatlar metodi bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo bo'lgan (V.D.Polenov, I.I.Levitan, K.A.Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashg'ulotlar manzaraning asosiy ob'ektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dog'i er yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog'i va hakazolar).

«Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va er tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak», -deb yozgan K.A.Korovin.

I.I.Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: «Biz hali manzaradagi er, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bog'lash ko'nikmalarini to'laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bu jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkab – manzarada suv, er va osmonning to'g'ri rangli munosabatlariga erishishdir».

Misol tariqasida N.N.Ge «Bulutlar», «Dengizda quyosh botishi» va A.E.Arkipovning «Shimoliy manzara» asarlarini ko'rishimiz mumkin. Rassom N.N.Ge osmon, suv va er munosabatlarini, old ko'rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o'zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E.Arkipovning etyudi esa betartib to'q rang surtmalari bilan osmon, erning asosiy munosabatlari ko'l bo'yidagi katta bo'lmagan omborxonaga tasvirlangan. Bunday dastlabki bir seansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani manzara etyudidagi rang tuzilishi uning materiallik va fazoviy sifatlarini, hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarida (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda-bo'laklarni bajarishga o'tiladi va xakazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida

albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chag'ib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, talimning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar huddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yaxshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak.

- 1) Plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli:
- 2) Asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash:
- 3) Umumiy tus va rangdorlik holati.
- 4) Manzara ob'ektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi:
- 5) Manzaraning mayda bo'laklarini tasviri:
- 6) Manzarada kenglik.

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan-mayda bo'laklarga va yana umum-lashtirishga. Manzara etyudini ishlash yahlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi.

Manzaraning obektlaridagi asosiy munosabatlarni to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlang'ich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10sm) bajarish zarur. Qo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan «ko'chirmasdan», balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q rang dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larini kuchi jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorug' va rang bo'yicha yoriin bo'lishi, to'q tusda esa old ko'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani etarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlili uyni va h.k.), obektlar bo'lib hizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoiiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzarani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi. Etyudning rangdor munosabatlari

yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Har bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

### **2.3.Tasviriy san`at o`qitishning tarbiyaviylik xarakteri**

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`quvchilarda badiiy-ahloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga ko`ra tasviriy san`atning asosiy va bosh vazifasi o`quvchilarning eng avvalo estetik didlarini o`stirish, mehnatga, ijodga

qiziqtirish, Vatanga, xalqiga e`tiqodli bo`lishga o`rgatish kabi tarbiya his-tuyg`ularini singdirish vazifasini va maqsadini amalga oshiradi. Shu boisdan tasviriy san`atni turi qaysi bir mashg`ulotidan qat`iy nazar, u eng avvalo tarbiya xarakteriga javob berish kerak. Maktab tasviriy san`ati o`quvchilarini har tomonlama garmonik tarbiyalashda maktab o`quv fanlarini boshida turadi.

Tarbiya masalasi tasviriy san`at darslarida natura va ob`ekt tanlashdan ularni tahlil qilishdan boshlanib, rasm chizish jarayoniga davom etadi. Rasmi chiziladigan narsa, voqea, ob`ekt yoki tahlil etiladigan san`at asarini taxlilida eng avvalo uning tarbiyaviy tomoniga e`tibor beriladi. Shuningdek, mashg`ulotlar jarayonida rasm chiziladigan narsa va voqealar va asardagi voqealar, asarni g`oyasini, syujetini tahlili davrida o`qituvchi ularning tarbiyaviy yo`nalishiga e`tibor beradi. Har bir san`at asari tahlilida albatta o`qituvchi bu asarni odam farzandi - rassom yaratgani, asardagi voqeani xalq manfaati yo`lida ifodalanish, albatta, o`quvchilarni Vataniga, xalqimizga, uni mehnatga bo`lgan hurmati va muhabbatini oshiradigan mazmunda suhbat o`tkazadi.

Darsda oddiy «ko`za» rasmi chiziladigan bo`lsa, o`qituvchi ko`za nima uchun ishlatilishi, uni kim yasagani, o`zbek kulolchiligi, amaliy san`ati, kulolni mehnati va san`ati haqida, so`ngra uni tuzilishi, rangi xususida ma`lumot beradi. O`quvchilar bunday ma`lumotlarni olib, ularni o`z Vataniga, xalqiga, uni amaliy san`atiga, kulolchiligi sohasiga havasi ortadi, ularga mehr-muhabbati uyg`onadi. Tasviriy san`atning har bir mashg`ulotida bunday jarayon sistemali takrorlanadi. Umuman, maktab tasviriy san`atning o`quv dasturi materiallari uning har bir mashg`ulotida tarbiya berish vazifasini to`la amalga oshirish imkoniyatlariga egadir.

### ***O`qitishning ilmiylik printsipi.***

O`qitishning didaktik asoslarini yaratgan Ya.O.Kamenskiy - «Xudo aqldan butunlay mahrum qilmagan yoshlarning barchasi ta`lim oladi. Insonni aqlli, dono, zakovatli, yaxshi fazilatli, yuksak ma`naviyatli kilib tayyorlashga yordam beradigan



barcha narsalar yoshlarga o`rgatiladi. O`qitiladigan narsalar zaxriy emas, balki haqiqiy, to`g`ri ob`ektiv, ilmiy bo`lishi kerak» - deb ko`rsatgan edi. Pedagogikaning ta`lim nazariyasida o`qituvchilarga beriladigan ma`lumotlarni hammasi ilmiy, haqkoniy, to`g`ri, fan ma`lumotlari asosida bo`lishini qayta-qayta ta`kidlanadi.

Tasviriy san`atning barcha darslarida ilmiylik printsiplarda ishlash imkoniyati dasturida to`la ta`minlangan.

Ilmiylik printsiplari o`quvchilarga rasmi chiziladigan natura, ob`ekt, mavzu, voqea-hodisalarni tahlili davrida o`qituvchi o`quvchiga berilayotgan har bir ma`lumot ilmiy, fan ma`lumotlari asosida bo`lishi kerakligini ko`rsatib beradi. Buning uchun o`qituvchi boshqa o`quv fanlari bilan bog`lanishi kerak. Yana o`qituvchi tahlil qilayotgan narsa, ob`ekt yoki san`at asari haqida asosiy fan ma`lumotlarga ega bo`lishi lozim. Shundagina o`qituvchining suhbatlari ishonchli, to`g`ri, ilmiy bo`lishini ta`minlaydi.

Masalan: «Kuzgi mevalar natyurmorti» temasida rasm chiziladigan mashg`ulotda o`qituvchi natyurmortga tanlanadigan olma, anor, tarelka, pichoq kabi predmetlarni har biri bo`yicha taxlil o`tkazadi. Bu taxlilda olma yoki anor haqida botanika fani ma`lumotlari asosida suhbat qilinadi. Unda olmani o`qituvchilarga ko`rsatib, uni shakli, tuzilishi, rangi, odamlar uchun zarurligi haqida gapiriladi. Buni oddiy so`zlar bilan emas, fan ma`lumotlari asosida bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Bu o`qituvchiga dars samaradorligini oshirishga imkon bersa, o`quvchilarga darsni kiziqarli, jonli, aktiv bo`lishini ta`minlaydi. Pichok va tarelka tahlili mehnat o`quv fanlari ma`lumotlari asosida bo`lishi lozim. Dars mashg`ulotlarida ko`plab san`at asarlari tahlil qilinadi. Unda ham tahlil qilinadigan san`at asarlarini o`rganish zarur ma`lumotlarni ilmiylikini ta`minlashi zarur,

M: K.P.Bryulovning (5-sinfda) «Pompeyning so`nggi kuni asari» taxlilida o`qituvchi eng avvalo K.P.Bryulovning biografik-ijodini yaxshi bilishi, so`ngra Italiyani (qadimgi RIM) ni eramiz boshlaridagi san`at va madaniyatini, yana

Pompeya shahrini bilishi, ya`ni Vezuviy vulqoni haqida aniq ma`lumotlarga ega bo`lishi kerak.

Agar o`qituvchi shunday ilmiy ma`lumotlarga ega bo`lsa, bu dars har qanday darsdan qiziqarli va samarali bo`ladi. Umuman tasviriy san`atning har bir mashg`uloti ilmiylik asosida bo`lish imkoniyati mutloq zarur, bunga zaruriy shart-sharoit bugungi kunda mutloq mavjuddir. Buning uchun o`qituvchi o`z fanini, san`at nazariyasini yaxshi bilishi zarur. Shuningdek, zaruriy metodik adabiyotlarni ko`proq o`qishi va boshqa o`quv fanlari bilan sistemali bog`lanishi zarur. Shuningdek, maktab mutaxassis tasviriy san`at o`qituvchisi bilan ta`minlash zarur. Maktab tasviriy san`at o`qituvchisi tasviriy san`at o`quv predmetiga, har bir darsga bo`lgan o`quvchilar qiziqishini oshirib borish tadbirlarini ishlab chiqadi. Sinfidan va maktabdan tashqari ishlarni muntazam holda amalga oshiradi.

I-IV sinflarda tasviriy san`at darslarini o`tkazish metodikasi va didaktikasining pedagogik asoslariga tayanadi. Shunga ko`ra o`qituvchi I-IV sinfni har bir sinfida o`quvchilarni bilim-malakasi, qiziqishi va yosh xususiyatiga ko`ra dars materialini tanlaydi.

Ma`lumki, I-III sinflarda hajmsiz predmetlar rasmi chiziladi. Bu mashg`ulotlarni samarali bo`lishi uchun o`qituvchi ko`proq amaliy ishlarga e`tibor berib, rasm chizishni ilmiy asoslari bilan o`quvchilarni tanishtirib boradi. Darsda tasvirlash mashqlari uzluksiz - didaktikaning «sistemalilik» printsipi asosida amalga oshiriladi. I-III sinflarda «narsani o`zig`a qarab», «tema asosida» rasm chizish, «badiiy-amaliy san`at» va «haykaltaroshlik» kabi amaliy ishlar mazmunida mashg`ulotlar o`tkaziladi. Bu sinflarda san`at asarlarini o`rganish uchun alohida vaqt ajratilmagan bo`lsada, har bir mashg`ulotda dars mavzusi bo`yicha 1-2 dona asarlar o`rganib boriladi. Bu mashg`ulotlar yangi dasturda qalamtasvir, rangtasvir, amaliy va dizayn san`ati, me`morchilik, haykaltaroshlik va suhbat mazmunida beriladi. Bu mashg`ulotlar asosida o`quvchilarga boshlang`ich sinfdanoq tasviriy san`at haqida ma`lumotlar beriladi. Shuningdek boshlang`ich sinflarda chiziq, kompozitsiya, shakl, hajm, fazo, natura haqida boshlang`ich ma`lumotlar berish ko`zda tutiladi. Pedagogika

nazariyasi va tarixida ma'lumki har bir dars metodikasi jahon pedagogikasi tajribalariga suyanadi. Dars metodikasining to'g'ri tanlash eng avvalo pedagogika nazariyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi o'zi dars metodikasini belgilashda o'qitishning didaktik printsiplaridan kelib chiqqan holda dars materialini oson, qisqa, ilmiy asosda o'quvchiga yetkazadigan eng samarali metodini tanlaydi.

Tasviriy san'atni o'qitishda og'zaki bayon etish, savol-javob va amaliy ishlarni tashkil etish va ko'rgazmalilik metodlaridan foydalaniladi. Maktab tasviriy san'ati kursini o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi rasm chiziladigan narsa, ob'ekt voqea-hodisalar yoki o'rgatilayotgan asar haqida o'quvchilarga og'zaki ma'lumotlar beradi. Bu og'zaki bayon etish metodida talqin etilib, o'qituvchi darsning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda dars mazmunini og'zaki bayon etish uslubida amalga oshiradi.

Tasviriy san'at darsi o'z xarakteriga ko'ra har bir dars materialini ko'rgazmalar vositasida, ko'rgazmali o'qitish uslubiyotida amalga oshiradi. O'qituvchining ko'rgazmalilik uslubida amalga oshirgan darsi o'quvchilarga puxta bilim berish imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarining barchasida amaliy ishlar bajariladi. Shu boisdan o'qituvchilar amaliy ishlar metodidan ham foydalanadi.

I-VII sinflarning tasviriy san'at darslarini barchasida pedagogikaning barcha turdagi dars o'tish metodlaridan foydalaniladi. Unda hatto savol-javob metodidan ham foydalaniladi.

I-VII sinflarda rasm chiziladigan natura va natyurmortlarda rasmini chizish yoki tematik kompozitsiyalar yaratishning ish mazmuni ancha murakkablashib boradi. Bular o'qituvchidan dars jarayonida qo'llanilayotgan uslublarini o'zgartirib goh bir, goh ikkinchi - boshqa uslublardan foydalanishni taqazo etadi. Ammo har bir darsda og'zaki bayon etish va savol-javob metodidan keng foydalanadi.


Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda turli uslublarni qo'llanishidan qat'iy nazar o'qitish didaktikasini tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, ketma-ketlik,

ko`rgazmalilik, nazariyot bilan amaliyotni birligi kabi printsiplarga doimo asoslanadi. Chunki, dars uslublarini barchasi o`qitish didaktikasi asosida amalga oshiradi. Didaktika sinf - dars sistemasini ilmiy asosi bo`lib, didaktika talabiga javob bermaydigan dars o`z maqsadiga erisha olmay va oldiga qo`ygan vazifani bajarmaydi. Shuningdek, tasviriy san`atning har bir dars mashg`uloti predmetlararo bog`lanishi printsipli asosida ishlaydi.

Predmetlararo bog`lanish darsni ilmiyligini, izchilligini, amaliyot bilan bog`liqligini ta`minlaydi. Predmetlararo bog`lanish darsini va uning o`quv materiallarini boshqa o`quv fanlari bilan bog`laydi. O`quvchilarni boshqa fanlardan olgan bilim va malakalaridan tasviriy san`at darslarida foydalanishga o`rgatadi. Ular bu bog`lanish asosida dars materialini osonroq o`zlashtirib oladilar. O`qituvchining dars uslubini to`g`ri tanlashi va undan unumli foydalanishi o`ziga osonroq sharoit yaratadi, o`quv materialini oson, kiska, ilmiy va tushunarli kilib o`quvchiga etkazadi. Yangi dastur bo`yicha I-VII sinflarda tasviriy san`at o`quv fani mashg`ulotlari: suhbat, rangtasvir, grafika (qalamtasvir), haykaltaroshlik, me`morchilik, amaliy va dizayn san`ati yo`nalishlarida olib boriladi. Bu sinflarda ham o`quvchilar tasviriy san`at, amaliy san`at, badiiy loyihalar, dizayn san`ati, haykaltaroshlik (hajmli tasvirlash) ni va san`at asarlari tahlilini o`rganadilar. Shuningdek, ular qalamtasvir, rangtasvir, grafika, janrlar, mavzu, kompozitsiya, hajm, fazo (perepektiva), chiziq, yorug` soyalar, rang, rang uyg`unligi, dog`, mazmun, shakl, g`oya kabilar haqida ma`lumot oladilar.

#### **2.4. Tasviriy san`at fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi**

**Sinf 7. MAVZU: O`ZBEKISTONNING QADIMIY VA O`RTA ASRLAR ME`MORIY YODGORLIKLARI HAQIDA SUHBAT**



### **Dars soatining taqsimlanishi**

Guruhlarga bo'lish	3 daqiqa
Fikr – almashuv, bahs – munozara	15 daqiqa
Guruh savollarining javobi	18 daqiqa
Darsni yakunlash, muhokama, baholsh	5 daqiqa
Uyga vazifa berish	2 daqiqa

### **Guruhlar bilan ishlash metodi**

**Dars maqsadi:** Guruhlar bilan ishlash metodi orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularni jamiyat uchun kerakli, har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishni ta'minlash.

O'quvchi guruhlarda ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rovida bo'lishga, bir-biridan o'rganishda ko'maklashishda yordam beradi.

**Ta'limiy-** O'quvchilarni O'zbekiston hududidagi eng-qadimgi san'at asarlari bilan tanishtirish. Tasviriy san'at va me'morchilik asarlarini o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy-** Bolalarda milliy g'ururni shakllantirishga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi-** O'quvchilarda nazariy va amaliy ko'nikma hosil qilish. Me'morlik san'atining tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari, tasviriy usul va vositalari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

**DTS talablari:** O'zbekistonning mashhur me'morchilik asarlarini bilish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** Noan'aviy. Aralash metodlar.

**Jihozlar:** Qo'yqirilgan qal'a, Fayoztepa, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Varaxsha, Ayrtom, Dalvarzintepa, Afrosiyob fotoreproduksiyalari.

Samarqand, Buxoro, Xiva me'morligi reproduksiyalari; texnik vosita-kodoskop; slaydlar; bukletlar.

**Metodlar:** Aqliy hujum, mustaqil o'qish, suhbat, savol-javob, musobaqa.

**Me'morlik san'ati atamalari :**

Ansambl, maqbara, minora, peshtoq, rabot,

Suls yozuvi, xonaqoh, gumbaz.

**Guruhlarga bo'lish:** O'quvchilarni 6 kishidan jamlab 6 ta guruhga bo'lib olinadi.

**Guruhlarga bo'lish metodikasi:** O'quvchilarga me'morchilik san'ati atamalaridan 6 tasini birin-ketin aytishlarini iltimos qilinadi. Natijada o'quvchilar guruhlarga ajratib olinadi.

Minora – 1- guruh

Peshtoq – 2- guruh

Rabot – 3 – guruh

Xonaqoh – 4 – guruh

Gumbaz – 5 – guruh

Ansaml – 6 – guruh

O'quvchilarni guruhlarga bo'lib olingandan so'ng guruhlar quyidagi topshiriqlarni oladi. Birinchidan guruh sardori saylab olinadi, sardorning vazifasi guruh ishini faollashtiradi, aytilgan to'gri javoblarni yozadi.

Guruhlarga mavzu matni berilmay turib, mavzu asosida savollar yozilgan o'quv plakati ilib qo'yiladi:

### **Aqliy hujum:**

1. O'z qishlog'ingiz, shahringiz, tumaningiz, viloyatingiz hududidan topilgan qaysi me'morlik yodgorliklarini bilasiz ?
2. Qo'yqirilganqal'a, Fayoztepa, Tuproqqal'a, Varaxsha, Ayrtom, Dalvarzintepa, Afrosiyob kabi mashhur qazilmalar qaysi shahar, tumanlarda joylashgan ?
3. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent va Qo'qon shaharlaridagi qanday qadimiy me'moriy obidalarni bilasiz ?

### **O'qituvchi:**

“Aziz o'quvchilar sizlar tarix, adabiyot darslarida me'morlik san'ati haqida ozmuncha bilimga egasiz. Shu bilimlaringizni ishga solgan holda yuqorida keltirilgan savollarga javob berib ko'ringchi .... Qani qaysi guruh ko'proq bilarkin. Marhamat.”

Guruhlar faoliyati aniqlanadi. (Rag'bat kartochkalari beriladi.)

Guruhlar faoliyati aniqlangandan keyin doskaga me'morlik san'ati atamaları yozilgan ko'rgazmali o'quv plakati ilib qo'yiladi:

### **Me'morchilik san'atiga oid atamalar:**

**Ansaml** (Fransuzcha) – bir butunlikni, kompozitsion yahlitlikni tashkil etuvchi tarkibiy mutanosiblik. Tasviriy san'at, musiqa, me'morchilikda ko'proq qo'llaniladi. Misol uchun, Samarqanddagi Registon ansambli.

**Minora** – Sharq me'morchiligida keng qo'llanilgan baland inshoot. Misol uchun, Buxorodagi Minora Kalon, Xivadagi Kalta minor.(Arabcha).

**Peshtoq** – binoning old qismi. Odatda u serhasham qilib bezatilgan bo'ladi. Misol uchun Samarqanddagi Sherdor madrasasining peshtoqi. (Forscha)

**Rabot** (arabcha) – qadimiy me'morchilikda keng qo'llanilgan me'moriy inshoot, qo'rg'on, ularda soqchilar turadigan joy. Qadimiy tasviriy manbalarda rabotlarning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin.

**Suls yozuvi** – arab yozuvida mavjud bo'lgan yetti yozuv turning biri. Qadimiy sharqona binolarning peshtoqlariga, minora va devorlariga Qur'ondan parchalar, Hadislar yozishda qo'llanilgan.

**Xonaqoh** – masjidning ko'pchilik bo'lib namoz o'qishga mo'ljallab qurilgan katta xonasi. Xonaqoh qishloq masjidlari, karvonsaroylarda ham bo'ladi. Eshonning so'filar bilan zikr tushadigan xonasi ham xonaqoh deyiladi.

**Maqbara** (arabcha) – qabr ustiga qurilgan me'morial bino – mavzoley.

Musulmon dinida dastlab qabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat qurish umuman man etilgan. Lekin IX asrdan boshlab maqbara qurish odatga kira boshladi. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, ulug' ruhoniylar qabri ustiga hashamatli maqbaralar qurildi. Buxorodagi Somoniylar, Marvdagi Sulton Sanjar, Samarqanddagi Amir ATemur maqbarasi va Shohizinda ansambllari ana shunday mavzoleylarning ajoyib namunalaridandir.

Har bir guruhning iqtidorli rassom o'quvchisi guruhiga berilgan atamaning ma'nosini tushunadi va ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda yoki hayolan guruh nomiga rasm ishlashni boshlaydi.

O'quvchilarga mavzu bo'yicha qisqa mazmunli yo'llanma ko'rsatma matni beriladi hamda oldindan tayyorlangan tarqatma savollar guruhlarga tarqatiladi.



Tarqatma savollar guruhga (guruhlarga) tarqatilgandan so'ng har bir guruhga berilgan savollar yuzasidan fikr-almashuv hamda bahs-munozira orqali javoblar tayyorlana boshlanadi.

### **1- “Minora” guruhiga berilgan savollar:**

1. Me'morlik qanday san'at ?
2. Me'morlik san'atining juda qadim zamonlardagi va Neolit davridagi rivojlanishini aytib bering.
3. O'zbekiston me'morchiligi antik va ilk feodalizm davrida.
4. O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalarni izlab topishda qaysi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar ?

(Qazilmalar nomini ayting.)

### **Mavzu matni**

Me'morlik- insonning har kungi hayotidan ajralmas san'atdir. Me'morlik ham san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy-ma'naviy mavqei o'zida aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik qarashlarini hajmi shakllarda namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at haqli ravishda tarixiy voqealarning solnomasi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda juda qadim zamonlardan boshlab odamlar g'orlarda yashash bilan birga yer ustiga ham turarjoylar qura boshlaganlar. Loy va turli shakldagi xom g'ishtdan foydalanib uylar qurishgan, bino devorlari, pollarni suvashgan va rang berib xonalarni bezashgan. Neolit (mil.avv.6- 4 minginchi yillar) davri so'ngiga kelib O'zbekiston yerlarida qo'rg'ontepalar qurilishi zaminida shahar va shahar-davlatlari rivojlanib bordi. Shu shahar-davlatlarda me'morlik majmualari yaratildi.


O'zbekiston me'morligining antik va ilk feodalizm davrlari ham me'moriy obidalarga boy bo'lgan. Bu davrda yangi me'moriy g'oyalar paydo bo'ldi, yirik

me'moriy majmualari, mavzuli rassomlik kompozitsiyalari, mahobatli haykaltaroshlik asarlari yaratildi. Feodallarning qasr-qo'rg'onlari, boy zodagonlarning shahar va shahar tashqarisidagi qasrlari vujudga keldi, yangilandi. Bu davr me'morligining o'ziga xos tomonlari qo'rg'on-qasrlar-ko'shklar qurulishida sezilarli bo'ldi. Bu qo'rg'on-qasrlar avvalgi badiiy-madaniy markazlardan bir muncha chekkada bo'lib, asosan dehqon-feodallarning turar joyi sifatida paydo bo'ldi. Bu qo'rg'onlar mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Shu qo'rg'on-qasrlar atrofida keyinchalik turarjoylar, bozorlar paydo bo'la borgan. Vaqt o'tishi bilan ana shu yerlar ham qalin devorlar bilan aylantirib o'rab olina boshlagan.

O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida Varaxsha, Afrosiyob, Halchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Aytrom, Dalvarzintepa, Qo'yqirilgan qal'a kabi qazilmalar topilgan. Qazilmalarda yuksak badiiy saviyada yaratilgan ko'plab me'morchilik obidalari, devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari borligi aniqlangan. Bu noyob qazilmalarni izlab topishda L.I.Rampel, G.A.Pugachenkova, Y.A.Bulatov, B.P.Denike, M.Ye.Masson, B.A.Nilsen, V.A.Shishkin, A.Asqarov, Ya.G'ulomov, S.P. Tolstoy kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.

## 2. "Peshtoq" guruhiga berilgan savollar:

1. Qo'yqirilgan qal'a va Fayoztepa nechanchi asrga oid yorgorlik va ular qayerlarda joylashgan ?
2. Qal'a va Fayoztepa binolari qanday ko'rinishga ega ?
3. Ularda qanday tasviriy san'at asarlari mavjud bo'lgan ?
4. Tuproqqal'a haqida ham ma'lumot bering.



51- rasm. Qo'yqirilganqal'a. Qayta tiklangan nusxasi.



## **Mavzu matni**

Qo'yqirilgan qal'a miloddan avval III-IV asrlarga oid yodgorlik. U O'zbekistonning To'rtko'l shahridan 22 km uzoqlikda joylashgan. Unda shohlar zali, askarlar zali, g'alaba zallari ham bo'lgan. Bino ikki qavatli bo'lib, diametri 44,4 m balandligi

9,5 m ni tashkil etadi. Devorga loy olingan joy suv bilan to'lgazilib qandakga aylantirilgan. Devor orasidan o'q o'tadigan tuyniklar bor. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, undan devoriy rasmlar, idish-tovoq, tobut, haykalchalar, devoriy naqshlar topilgan.

Bular orasida arfa chalayotgan ayol va qo'sh baraban chalayotgan erkak kishi, shuningdek, qisiq ko'zli, qulog'iga sirg'a taqqan, gulli ko'ylak kiygan ayol rasmlari e'tiborga loyiqdir.

Devoriy rasmlarda ko'plab ayollar tasviri uchraydi. Erkaklar tasviri ham mavjud. Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda ganchdan tayyorlangan relyeflar, haykallar ishlangan va ular ustidan ranglar berilgan. G'alaba zalidagi bir relyefda shoh va uning atrofida ayonlar aks etgan, boshqa xonadagi relyeflarda esa kiyik, anor, shuningdek uzum daraxtlari tasvirlangan. Bu qadimgi san'atkorlarning yuksak mahoratlaridan darak beradi.

Fayoztepa – eramizning I – III asrlariga oid budda ibodatxonalari majmuasi bo'lib, Termiz shahridan 15 km narida, 1968 – 76 yillarda topilgan. Fayoztepa devorlari paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. U uch qismdan – markaziy qism, ibodatxona va xo'jalik binolaridan tashkil topgan. Ibodatxonadan balandligi 3 mli erkak va ayol, shuningdek, muqaddas daraxt tagida o'tirgan odam va uning

yonidagi ikki rohib tasvirlangan haykallar topilgan. Fayoztepa Eron qo'shinlari, keyinchalik arab istilolari natijasida butunlay vayron bo'lib, qum ostida qolib ketgan.

Tuproqqal'a – miloddan avval I asr va milodning VI asrlariga oid qadimgi shahar qal'a xarobasi. U hozirgi Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida bo'lib, u 1938 – 1950 yillarda topilgan. Buning asosini saroy, unga tutash Ark tashkil etadi. Ark maydoni 40x40 m balandligi 25 m bo'lgan. Saroyda 8 ta zal bo'lib, ular bo'rtma naqsh, relyefli haykallar, devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Devoriy rasmlar ganchli sovuq ustiga mineral bo'yoqlar bilan ishlangan. Tasvirlarda oq, qora, ko'k, zangori, pushti, qizil, sariq, och va to'q yashil, jigarrang, binafsha ranglardan foydalanilgan.

«Qizil xona» deb nomlangan xonada daryo manzarasi, hayvon, qush, baliqlar tasvirlangan.

### 3 – “Rabot” guruhiga berilgan savollar:

1. Bolaliktepa va Varaxsha qal'alari nechanchi asrga oid yodgorlik va ular qayerlarda joylashgan ?
2. Ularning binolari qanday ko'rinishga ega ?
3. Ularda qanday tasviriy san'at asarlari mavjud bo'lgan ?
4. Qadimiy shahar Aytrom haqida nimalarni bilasiz ?




## Mavzu matni

Bolaliktepa – Termiz shahridan 30 km shimolda joylashgan qo'rg'on qal'a. Qal'a 1953 – 55 yillarda topilgan bo'lib, u V – VI asrlarda yaratilgan deb tahmin qilinadi. Qal'a ichida 10 ta xona bo'lgan. Bu qal'adan sopol, shisha, musiqa, asboblarning siniqlari, chilim kabilarning bo'laklari topilgan.

Xona devorlari devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlar mehmondorchilik va ov mavzusida bo'lib, loysuvoq ustiga yelimli bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu kompozitsiya va uning ranglari rassomning katta mahoratidan dalolat beradi.

Odam tasvirlarida mahsi, chopon, belbog', zirak kabilar ham aks etgan.



Varaxsha – Buxora shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xarobasi, hozirda bu joy cho'lga aylangan. Bu yerda miloddan ming yil avval odamlar yashagan va u yerda tasviriy san'at yaxshi rivoj topgan. Varaxshadagi eng katta bino 9 ga ni egallagan va balandligi 10 m ni tashkil etgan. U binoda hukmdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslahonalar bo'lib ulardan biri qizil xona hisoblangan. Rangtasvirda ov manzarasi aks ettirilgan bo'lib, unda ko'proq qizg'ish-kulrang, sariq ranglar ishlatilgan. Rasmda soyalar aks etmagan. Rangtasvirning ayrim namunalari Sankt – Peterburgdagi Ermitajda saqlanadi. Yer ostidan yuksak badiiy saviyada ishlangan haykallar ham topilgan.

Ayrtom – Termizdan 18 km ., Amudaryo qirg’og’ida joylashgan qadimiy shahar bo’lib, 1932-yilda topilgan. Qazish ishlari jarayonida turli haykal va frizlar topilgan. Ulardan arfa, qo’shnay, ud, nog’ora chalayotgan sozandalar, qo’llarida gulchambar, meva va idishlar ko’targan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykaltaroshligiga juda o’xshab ketadi. Bu I – II asrlarda budda dinini O’rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan bo’lganadi. Ular o’zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqori.

1938 – yilda Ayrtomdan I – II asrlarga oid budda dini ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus hujralar, buddahaykali bo’lgan. Yuqorida qayd qilingan frizlar shu ibodatxonalarni bezagan bo’lishi ehtimoldan holi emas.

#### **4 – “Xonaqoh” guruhiga berilgan savollar:**

1. Dalvarzintepa qayerda joylashgan va nechanchi yilda topilgan bo’lib, nechanchi asrga oid yodgorlik ?
2. Dalvarzintepada qanday buyumlar va tasviriy san’at asarlari topilgan ?
3. Afrosiyob qayerda joylashgan va nechanchi asrga oid yodgorlik bo’lib, binolari ko’rinishi qanday bo’lgan ?
4. Qanday tasviriy san’at asarlari topilgan ?

#### **Mavzu matni**

Dalvarzintepa – Andijon viloyatining Dalvarzin qishlog’ining chekka qismida joylashgan turar joy xarobasi hisoblanib, u 1952 – yilda topilgan.

U davrimizning II asriga to’g’ri keladi. Yer osti qazilganda u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko’chalar, g’alla omborxonalari, turli uy jihozlari, sopol buyumlar topilgan. Dalvarzintepada qadimda qishloq xo’jaligi, metal bilan ishlash, tasviriy va amaliy san’at rivojlangan. Yer ostidan naqshli idishlar va odam haykallari ham topilgan. Ganchdan ishlangan ayol kallasi eramizning II asrida yaratilgan deb tahmin qilinadi.

Afrosiyob – Samarqand shahri yonbag'ridagi xaroba bo'lib, u miloddan avval VI – V asrlarda mavjud bo'lgan. Afrosiyobni qazish ishlari XX asr boshlarida boshlanib, hozirda ham davom ettirilmoqda. Qazilma ishlari natijasida qal'a ichida saroy borligi aniqlanib, uning qadimiy ko'rinishi rekonstruksiya qilingan. Bu binoda bir necha xonalar bo'lib, ulardan biri mehmonxona ekanligi aniqlandi. Mehmonxonaning to'rt tomoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. U rasmlardan birida bir erkak va bir ayol suhbatlashib o'tirgani aks etgan.

Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan.


To'y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika saman ot mingan kuyov aks etgan. Malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan. Rasmdagi ayol qizil rangdagi ko'ylak, och kulrang ro'mol, sariq lozim, qora etik, qo'lida bilaguzukda mohirona tasvirlangan. Bu rasmda saroy xodimlaridan ikkitasi tuyalarga minib kuzatib kelayotganliklari ifodalangan. Ulardan biri chol, ikkinchisi undan yoshroq kishi. Ikkovlari ham serbezak kiyimda tasvirlangan. Ularning bellarida kichik hanjar va qilich osilgan, qo'llarida hassa. Bu ularni saroy amaldorlari ekanligidan dalolat beradi. Ularning orqasida oq rangli parrandalar ergashib kelmoqda. Bulardan tashqari oq kiyikli kichik kishi ham tasvirlangan. Ulardan biri qora rangli otni yuganidan tortib kelmoqda, ikkinchisi orqaroqda qushlar yonida tasvirlangan. Bu rasmlar orqali bir necha ming yillar burun ajdodlarimiz mohir san'atkor bo'lib, yuksak badiiy asarlar yaratganliklariga ishonch hosil qilamiz.

### **5 – “Gumbaz” guruhiga berilgan savollar:**

1. Rivojlangan feodalizm davrida O'zbekiston me'morligi.
2. Rabot, masjid, mehrob, minbar, minora, madrasa, xonaqoh, gumbaz, maqbara kabi atamalarni me'morlik san'atiga kirib kelishi.

3. Bu davrda qurilishda xom g'isht va paxsadan tashqari yana nimalardan foydalanildi.

4. Samoniylar maqbarasi haqida ma'lumot bering.



O'zbekiston me'morlik san'atining yangi bosqichi rivojlangan feodalizm davriga to'g'ri keladi. Shu davrda O'zbekiston jahonga ajoyib olimlarni berdi. Me'morlikda yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar yuzaga keldi. Shahar hayoti rabotga ko'chdi. Shu yerda gavjum bozorlar paydo bo'ldi. Savdo qatorlari yaqinida esa hunarmandlar jamoalari shakllana bordi. Shaharda va undan tashqarida jamoat va turarjoylar ko'plab qurildi. Bu qurulishlarda asta islom dini bilan bog'liq me'morlik shahar qiyofasini belgilashda muhim o'rin egallay boshladi. Masjid qurilishi boshqa dinlar bilan bog'liq diniy binolar qurilishiga chek qo'yaboshladi. Shu davrda masjid tiplari yuzaga kelib, juma masjid va guzar masjidi hamda shahardan chekkada namozgohlar barpo etildi. Masjid ichida qibla tomonda mehrob yonida minbar qurilgan. Namozgohga chiqish uchun minora ishlanishi ham shu davr mahsulidir. O'quv dargohlari – madrasalar qurilishi ham jonlana boshladi. Xonaqohlar alohida masjid – madrasalarda ularning yaqinida qurilgan. Shunday xonaqohlar Samarqand, Buxoroda ko'plab uchraydi. Savdo chorrahalarda Chorsu savdo gumbazlari, shahar darvozalari oldida karvonsaroylar hamda shahar va undan tashqarida maqbaralar qurilishi shu davr me'morligining o'ziga xos yangi yo'nalishlari mahsuli edi. Ayniqsa, maqbaralar qurilishida bezak



san'ati yutuqlari o'z ifodasini topdi. Qurilishda xom g'isht, paxsadan tashqari pishiq g'isht va alebastr qarishmalaridan foydalanish ham muhim bo'ldi. Uchli toqilar ham me'morlik san'ati o'zgarishlarini belgiladi. Minora qurilishi ham odat tusiga kirib kela boshladi.

Samoniylar maqbarasi haqli ravishda jahon me'morlik san'atining nodir yodgorligi hisoblanib, dastlab o'zining sodda va tuzulishining aniqligi nisbatlarining nihoyatda mutanosibligi va me'moriy shakl devorining nihoyatda nafis holda bir – biri bilan uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib (7,20 x 7,20) to'rt tomonida arkli eshik mavjud.

Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtni turli holda taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yon, goh burchagi bilan qo'yilishi yuzaga yorug' – soya o'yinini oshirib, uni xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'lik – soya o'yini esa kurash nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba beradi. Binoning kubsimon va uning ustiga o'rnatilgan gumbaz bir – biri bilan uzviy va mustakam bog'langan. Ularning uyg'unligi va mustahkam turishi binoga alohida musiqaviy ohang kiritgandek bo'ladi. Bir oz mungli ko'ringandek bino abad uyqudagilar uchun nihoyatda sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyuladi.

#### **6 – “Ansambl” guruhiga berilgan savollar:**

1. Temur va Temuriylar davrida me'morchilik.

Shohizinda me'moriy majmuasi.


2. Registon me'moriy majmuasi

3. Shayboniylar davrida Buxoro me'morligi.

4. Xiva me'morligi.

Temur va Temuriylar davrida me'morlik san'ati nihoyatda rivojlandi. Bu davrda me'morlikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik majmualari muhim o'rinni egallaydi. Me'morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy – estetik ahamiyat kasb etadi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo me'morligida avval ham bo'lgan lekin XIV asrga kelib bino ichki va ayniqsa tashqi pardozida bu uslub alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli koshinlar XIV asr oxiridan keng tarqaldi.

Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z tasarrufidagi yerlarda ham hashamatli binolar qurdirdi.



Shohizinda me'morlik majmuasi Afsonaviy Afrosiyob yonbag'riga XI – XII asrlarda mavjud maqbaralar o'rniga qurilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sajdagoh joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra bu yerda avliyo Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha o'sha yerda yashashga qaror qilgan. «Shohizinda» - «tirik shoh» nomi shu yerdan olingan. Hozirgi Shohizinda majmuasi ko'rinishi XIV – XV asrlarning birinchi yarmida shakllangan. U 1434 – 1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ulug'bek rasadxonasi uch qavatli bo'lib

ichki qismi rasmlar bilan bezatilgan. Unda tabiat manzaralari keng o'rinni egallagan.

Go'ri Amir maqbarasi (1404 – 1405) sodda me'morlik shakllardan – sakkiz qirrali asos, silindrik baraban va qirrali ko'k moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilva. Uning ichki devorlari marmar bilan pardoqlangan. O'yma va rangli, shuningdek, oltin suvi yuritilgan naqshlar bilan ichki qismiga alohida fayz bergan.



Shayboniylar davrida Imonqulixon xizmatida bo'lgan Yalangto'sh nomli amaldor Samarqanddagi katta qurulishlarga homiylik qildi. Uning mablag'i hisobiga Registon maydoni to'liq shakllandi. U avval qurilgan Ulug'bek madrasasi (1417 – 1420) qarshisiga mahobatli Sherdor va uning yoniga Tillaqori madrasalarini qurdirdi. (Tillaqori m 1646 – 1660, Sherdor m. 1619 – 1936). Sherdor madrasasi peshtoqida real tasvir (yo'lbars, quyosh, odam qiyofasi), boshqa obidalarda islamiy va girih usulidagi naqshlar, suls uslubida bitilgan yozuvlar aks ettirilgan.

Shayboniylar davrida Buxoro Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biriga aylandi. Shaharda Temuriylar davrida qurilgan binolarga o'xshash hashamatli binolar qad ko'tardi. Peshtoqlari bir – biriga qaratib qurilgan qo'sh madrasalar qurildi. Buxorodagi markaziy ansambllardan Katta Kalon Jom'e masjidi va Mir

Arab madrasasi ham shu uslubda barpo etildi. XIV asrda Buxoro yaqinida Chor – Bakr majmuasi barpo etildi.

Buxorodagi Kalon masjidi minorasi (balandligi 60 m, O'rta Osiyodagi eng baland minora) g'ishtning badiiy imkoniyatlari bino tashqi bezagini belgilashda muhim ro'l o'ynagan. Aslida g'isht minora yuzasi naqshini tashkil etuvchi birdan – bir element bo'lib qolgan. Ularning taxlanishi va turish holati hisobiga yuza o'ziga xos ko'rinish va latofat kashf etgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xivaning mashhur yodgorliklari o'zining tugallangan ko'rinishiga ega bo'ladi. Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar hisobiga shahar ko'rki ochiladi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Tosh hovli kabi yodgorliklari bugungi kunda bezakdorligi hamda go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. Islomxo'ja minorasi shaharning ajoyib me'morchilik yodgorligi hisoblanadi.

Fikr – almashuv hamda bahs – munozara uchun ajratilgan vaqt payoniga yetgan har bir guruh yetakchisi navbatma – navbat berilgan tarqatma savollar yuzasidan so'zga chiqadi. Boshqa guruhlar tomonidan berilgan qo'shimcha savollarga ham javob beradi. **Darsni yakunlash:**

Vazifalari qaysi guruh a'zolari qanday yoritib bera olganliklari muhokama qilinadi, baholanadi. **1.** O'quvchilar bilimini sinash **5 ball**

**2.** Yangi mavzuni o'zlashtirganligi **5 ball**

### 3. Guruh nomiga rasm ishlash

5 ball



#### Uyga vazifa:

Me'morchilik tarixiga oid materiallar, me'moriy obidalarning fotoreproduksiyalarini yig'ish. Interfaol usulining "Zanjir" mashqiga tayyorgarlik ko'rib kelish.

#### Xulosa

Keyingi yillarda shaharlar tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Negaki, shaharlar eng qadimgi davrlardan boshlab ictimoiy, iqtisodiy

va siyosiy hayot qaynagan joy bo'lib, o'sha hududda yashovchi xalqlarning turmush tarsi, mashg'ulotlari va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini chuqurroq o'rganishga yordam beradigan maskan hisoblanadi. Bu esa o'zining asori atiqalari bilan jahonga mashhur "Buxoro ko'chalarini" o'rganish bu qadimiy shahar haqidagi tasvirlarni qog'ozda grafika uslubi asosida aks ettira oladigan darajadagi bilimlarini bir qadar bo'lsada kengaytirishga yordam berdi. Bugungi kunda grafika fanini o'rgatishda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu fanni o'rganishdan maqsad – grafika fanining nazariyasi va amaliy ko'nikmalari bilan (tasviriy san'atni o'rganuvchi) qaratilgan. Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli so'zishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi».

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz hamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustaxkamlab bormog'imiz lozimki, shunda ikkilanishga ham, esdan chiqishga ham imkon qolmaydi».

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashni yo'llari va usullari, ya'ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar».

Tasviriy san'atning tarixi, rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Evropa singari Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy

tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga etarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda kasb mahorati, yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bera oladi deb bo'lmaydi. Gap shundaki, talaba buyum va narsalarni o'ziga xos ranglarini va ularni yorug'lik ta'sirida o'zgarishlarini ko'rib tushunsa ham rangtasvirchi rassom bo'la olmaydi, chunki rangtasvirni umumiy qonuniyatlari (ranglar nisbati, issiq va sovuq ranglar, kolorit ranglar uyg'unligi) mavjud. Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N.Kardovskiy aytganki: «naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e'tibor shunga qaratilishi kerakki, butun darsni o'tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur... Doimo rang munosabatlari bilan ishlash va fikrlashga o'rganish kerak».

Ta'lim olish jarayonida biz talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari-rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashimiz lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yo'zasida xajmli buyumlarni fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit tasirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Mustaqillik yillaridagi tashkil etilgan ko'rgazmalardan shu narsa ko'rindiki, bu davr rassomlarni ijodiy erkinlik davri bo'lib, asarlarni mavzusi, syujeti, g'oyasi, kompozitsion echimi, rang uyg'unligi – koloritlarni g'oyat kengligi, badiiy uslublardagi mustaqillik, shijoat va ijodkorlik tuyg'ulari bilan mutloq yangilanish ko'rinib turdi. Mamlakatimizning o'nlab viloyat va shaharlarida to'xtovsiz san'at asarlari ko'rgazmasi muntazam holda o'tkazib kelinmoqda. Bular mamlakatimiz rassomlarini ijod va ilhom hisobotlari bo'lib, san'atimiz ravnaqidan dalolat beradi.

ILOVALAR  
**ILOVALAR**














































## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.I. Karimov « Barkamolavlodorzusi » Toshkent. O'zbekiston-2007.
2. I. Karimov « Yuksakma'naviyatengilmaskuch.» Toshkent O'zbekiston-2008 yil.
3. V. Veymark « U. Tansikboev » Moskva, Iskusstvo-1970.
4. N. Abdullaev « Peyzajnayajivopis O'zbekistana » G. Gulyam Toshkent 1985 yil.
- 5.« Janrovayajivopis O'zbekistana » A. Egamov Toshkent – 1989 yil.
- 6.G. B. Smirnov « Risunokijivopis » M. ProsveshMoskva – 1984 g.
- 7.Sharaxov « Основыкомпазистии » M. Prieв 1988 g
- 8.G. Abduraxmonov « Kompazistiyaasoslari » Toshkent – 2003 yil.
- 9.B. Toshev, N. Oripov « Rangtasvir va kompazistiya » Toshkent – 2000 yil.
- 10.« Iskusstvo Sovetskogo O'zbekistana » 1917- 172 g.
- 11.Izdatelstvo Sovetskiy xudojnik. Moskva – 1976 g.
- 12.« Izobrazit elnoeiskusstva Sovetskogo O'zbekistana » Toshkent-1957g.
- 13.R. Xasanov « Tasviriy san'atasoslari » - G. GulomnashriyotiToshkent – 2009 yil.
14. G.M Pavlov, V.N.Pavlova «Plastik anotomiya» M. 1967.
- 15.V.P.Shevchenko «Odam anotomiyasi va rasm». T., A.Qodiriy Nomidagi Xalq me'rosi nashriyoti 1996.
- 16.N.K.Axmedov. «Odam anotomiyasi» Atlas. Ibn-Sino.T. I-jild. 1996. II- jild 1998.
17. M.I. Rabinovich «Odam, to'rt oyoqli xayvonlar va parrandalarning lastik anotomiyasi» T.o'qituvchi, 1971.
18. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan loyihalar. Toshkent. «O'qituvchi» 1997 “San'at”jurnali. 2000 yil. 2 son..